

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**IV kurs bo`lim bitiruvchisi
RAJABOV TO`XTAMUROD ABDULLAYEVICHNING
«Nomalarda ishq, oshiq va ma`shuq talqini
("Muhabbatnoma" va undan keyin
yaratilgan nomalar misolida)» mavzusidagi**

*5120100- Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozgan*

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2013-2014- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

SH.A.HAYITOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy hakam:

N.J.BEKOVA,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Buxoro – 2014

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**IV kurs kunduzgi bo`lim bitiruvchisi
RAJABOV TO`XTAMUROD ABDULLAYEVICHNING
«Nomalarda ishq, oshiq va ma'shuq talqini
("Muhabbatnoma" va undan keyin
yaratilgan nomalar misolida)» mavzusidagi**

*5120100- Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozgan*

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2013-2014- o`quv yili)

Ilmiy rahbar:

SH.A.HAYITOV,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Buxoro – 2014

“Ma’qullayman” _____
Ilmiy rahbar: f.f.n., dotsent
Sh.A.Hayitov

“ ” _____ 2013-y.

“Tasdiqlayman” _____
O‘zbek filologiyasi
kafedrası mudiri B.Ė.
D.S.O‘rayeva

“ ” _____ 2014-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi Rajabov To‘xtamurodning
**«Nomalarda ishq, oshiq va ma’shuq talqini (“Muhabbatnoma” va undan
keyin yaratilgan nomalar misolida)»** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi ustida
olib borishi lozim bo‘lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR JADVALI

№	ISHNING MAZMUNI	BAJARILISH MUDDATI	NATIJA
1.	Malakaviy bitiruv mavzuini kafedra va fakultet kengashida tasdiqlatib olish va rejalarini rasmiylashtirish	avgust	Ijro etildi
2.	Mavzu bo‘yicha zaruriy ilmiy-usuliy materiallarni o‘rganish	sentabr, oktabr, noyabr	Ijro etildi
3.	Ilmiy adabiyotlarni mavzu nuqtai nazaridan o‘rganish	oktabr, noyabr	Ijro etildi
4.	Mavzu bo‘yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash.	sentabr -yanvar	Ijro etildi
5.	To‘plangan materiallarni sistemlashtirish	yanvar	Ijro etildi
6.	Malakaviy bitiruv ishining 1-bobini tayyorlash	fevral	Ijro etildi
7.	Malakaviy bitiruv ishining 2- bobini tayyorlash va xulosalash	mart	Ijro etildi
8.	Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko‘chirish	mart-aprel	Ijro etildi
9.	Malakaviy bitiruv ishining borishi to‘g‘risida kafedraga hisobot berish	may	Ijro etildi
10.	Ishni ilmiy rahbar taqrizi bilan kafedraga topshirish	may	Ijro etildi
11.	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may	Ijro etildi

Bitiruvchi kurs talabasi

T.Rajabov

Ilmiy rahbar

Sh.A.Hayitov

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek filologiyasi
kafedrasining 11-yig'ilishi bayonnomasidan**

K o' c h i r m a

Buxoro shahri

2014- yil 14- may

Qatnashdilar: kafedraning barcha a'zolari
va bitiruvchi kurs talabalari

Kun tartibi:

**2013-2014-o'quv yili uchun mo'ljallangan malakaviy bitiruv ishlarining
dastlabki himoyasi.**

Yig'ilishda 4-kurs talabasi Rajabov To'xtamurodning f.f.nomzodi, dotsent Sh.A.Hayitov ilmiy rahbarligida bajargan **«Nomalarda ishq, oshiq va ma'shuq talqini ("Muhabbatnoma" va undan keyin yaratilgan nomalar misolida)»** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishining yakunlanganligi to'g'risidagi axboroti va ilmiy rahbar xulosasi tinglandi.

Ish yakunlanganligini inobatga olib, o'zbek filologiyasi kafedrası yig'ilishi

QAROR QILADI:

1. 4-kurs talabasi T. Rajabovning f.f.nomzodi, dotsent Sh.A.Hayitov ilmiy rahbarligida bajargan **«Nomalarda ishq, oshiq va ma'shuq talqini ("Muhabbatnoma" va undan keyin yaratilgan nomalar misolida)»** mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi Rajabov To'xtamurodning malakaviy bitiruv ishiga f.f.nomzodi, dotsent N.J.Bekova rasmiy hakam etib tayinlansin.

Yig'ilish raisi

D.S.O'rayeva

Yig'ilish kotibasi

G.Samandarova

**Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti o`zbek filologiyasi
kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan
K o ` c h i r m a**

Buxoro shahri

2013- yil 26- avgust

Qatnashdilar: kafedraning barcha a`zolari
va bitiruvchi kurs talabalari

Kun tartibi:

2013-2014-o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlari mavzulari tasdig`i.

Yig`ilish kun tartibidagi masala yuzasidan kafedra mudiri I.M.G`aniyev qisqacha hisobot berdi va yangi o`quv yili uchun mo`ljallangan malakaviy bitiruv ishlari mavzulari ro`yxati tuzilganligini, mavzularning dolzarbligini, takrorlanmaganligini kafedrada tuzilgan maxsus komissiya ularni tekshirib chiqqanligini qayd etdi. Shundan keyin malakaviy bitiruv ishlari mavzulari ro`yxati yig`ilish kotibasi tomonidan o`qib berildi.

Malakaviy bitiruv ishlari mavzularini tasdiqlash taklifini yig`ilganlar qo`llab-quvvatladilar.

O`zbek filologiyasi kafedrası yig`ilishi

QAROR QILADI:

1. Bitiruvchi kurs talabasi T. Rajabovning bajargan bitiruv ishi mavzusi **«Nomalarda ishq, oshiq va ma'shuq talqini ("Muhabbatnoma" va undan keyin yaratilgan nomalar misolida)»** etib tasdiqlansin.
2. Bitiruvchi kurs talabasi Rajabov To`xtamurodning malakaviy bitiruv ishiga f.f.nomzodi, dotsent Sh.A.Hayitov ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

D.S.O`rayeva

Yig`ilish kotibasi

G.Samandarova

MUNDARIJA

KIRISH

I bob. NOMA JANRINING ILK NAMUNASI

1.01. “Muhabbatnoma”ning yozilish tarixi, tarkibi va tuzilishi.

1.02. Xorazmiy nomalarida ma’shuqa husnu jamoli, visol ishtiyoqi va hijron iztirobi talqini.

II bob. “LATOFATNOMA” – NOMA JANRINING NODIR NAMUNASI

2.01. Xo’jandiy “Latofatnoma”sining o’ziga xos xususiyatlari.

2.02. “Latofatnoma”da ona tabiat go’zalliklarining ma’shuqa timsolidagi ifodasi.

III bob. YUSUF AMIRIY VA SAYYID AHMADNING JANR TARAQQIYOTIGA QO’SHEGAN HISSALARI

3.01. “Dahnoma” va “Taashshuqnoma”da Yor va oshiq timsoli.

3.02. Nomalarning badiiyati.

3.03. She’riy maktublarning ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyati.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

KIRISH

Malakaviy bitiruv ishining umumiy tavsifi.

Mavzuning dolzarbligi va o'rganilish darajasi. Buyuk mutafakkirlar meros qoldirgan bebaho ijod namunalarini chuqur o'rganish, ularni mustaqillik ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida targ'ib qilish istiqboli yorqin kelajakning mustahkam zamini yoxud "... Bizning an'anaviy qadriyatlarimizni, hozirgi demokratik jamiyatning qadriyatlari bilan uyg'unlashtirish kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jamiyatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishining garovidir". (Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. – T.: O'zbekiston, 1997. – B.151.)

Ayni ta'kid o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida yaratilgan nomalarga daxldordir.

Hozirga qadar Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari o'zbek adabiyoti tarixida noma janrining ilk yodgorligi sifatida e'zozlanib kelinmoqda. Haqiqatdan ham shunday. Biroq turkiy xalqlar yozma adabiyotiga chuqur nazar tashlansa, nomachilikning avvalroq shakllana boshlaganligiga duch kelamiz. Masalan, XII asr yodgorligi Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida Kuntug'dining O'zgurmish bilan she'riy nomalar orqali bir – birlariga murojaat qilishlari fikrimizning dalilidir.

Nomanavislik an'anasini Xorazmiydan keyin Xo'jandiy davom ettirdi.

Shoir Xo'jandiy o'z asarini yaratishda "Muhabbatnoma" muallifi an'alarini davom ettirganligini o'z asarida bayon qiladi. "Latofatnoma"ning tuzilishi "Muhabbatnoma"ning tuzilishiga monand qilib yaratilgan. Biroq "Latofatnoma" muallifi o'nta nomada o'zining shoirlik qobiliyatini, ijodkorlik salohiyatini, mutafakkirligini to'la namoyon qila olgan. "Latofatnoma"da ishq talqini, oshiq va ma'shuqa obrazlari va shu obrazlar orqali oldinga surilayotgan g'oyalar o'ziga xos usulda berilgan. Xo'jandiydan keyin Yusuf Amiriy o'n ishqiy nomadan iborat bo'lgan "Dahnoma"ni yaratib, janr taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shdi. Yusuf Amiriydan so'ng ishqiy – sarguzasht noma janri taraqqiyotiga o'z ulushini qo'shgan shoirlardan biri – XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan Temurning uchinchi og'li Mironshohning og'li Sayyid Ahmaddir. Sayyid Ahmad o'zbek va

fors tillarida Sayyid taxallusi bilan juda ko'p she'rlar ijod qilgan. U "Muhabbatnoma", "Latofatnoma"ga o'xshatma tarzida "Taashshuqnoma" nomli asar yaratgan. "Taashshuqnoma" ham o'n nomadan tarkib topgan.

Yuqorida qisqacha tavsif qilingan to'rt asar ozbek adabiyoti tarixida she'riy noma janrining namunalaridan biridir. Biz malakaviy bitiruv ishimiz uchun tadqiqot manbai sifatida shu to'rt asarni tanladik.

XV asrda yashab ijod qilgan "Majma' ul -axbor" (Xabarlar to'plami), "Gulshani roz" (Sirlar gulshani) asarlarining muallifi Sayyid Qosimiy "Haqiqatnoma", "Ilohiynoma" nomlari bilan she'riy dostonlar bitgan. "Haqiqatnoma"da asarning "Xorazmiy "Muhabbatnoma" asaridan ilhomlanib yozilganligini tasdiqlovchi dalillar bor. Biroq, mazkur asar g'oyaviy yo'nalishi, tarkibi va tuzilishi jihatdan "Muhabbatnoma", "Latofatnoma", "Dahnoma" va "Taashshuqnoma"dan tubdan farq qiladi. Sayyid Qosimiy "Haqiqatnoma"sining Kirish qismi to'rt bobdan, asosiy o'n ikki bob va har bir bobga keltirgan bittadan hikoya va tamomi suxan (so'zning tugashi) boblaridan iborat. Asar xotima bilan tugallanadi. Sayyid Qosimiy "Ilohiynoma"si ham yuqoridagi asarlardan tubdan farq qiladi. Asar yaxlit kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan mustaqil she'riy dostondir. Shoir bu asarida o'zining sof muhabbati va sadoqati bilan buyuk unvonga erishgan pok ayol obrazini yaratgan.

Hazrat Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyondasi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari XX asrning yigirmanchi yillaridan boshlab sharqshunoslar e'tiborini o'ziga tortgan. Sharqshunos A. N. Samoylovichning "K storii literaturnogo sredneaziatskotustkogo yazika" tadqiqoti "Mir-Ali-Sher" to'plamidan o'rin olgan (Leningrad, 1928). Turk olimi Muhammad Fuad Ko'prulizoda tadqiqotlarida "Muhabbatnoma"ga oid nozik kuzatishlar mavjud. M.F. Koprulizoda Turkedebiuati tarihi, Istanbul, 1928, o'sha muallif. Sadatay edebitayi, Islam ansiklopediyasi, Istanbul, 1963). O'zbek olimi S.Qosimov 1950-yilda Xorazmiy "Muhabbatnoma"siga bag'ishlab nomzodlik dissertatsiyasini yozgan. Atoqli Natan Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida (Toshkent.: "O'qituvchi" 1976, 227-240-betlar). "Muhabbatnoma"ga

bag'ishlangan maxsus maqola mavjud. Ma'lumki, "O'zbek adabiyoti tarixi" besh tomligining birinchi jildi o'zbek madaniyati va adabiyotining eng qadimgi davrlaridan boshlab XV asrning ikkinchi yarmiga qadar bo'lgan tarixiga bag'ishlanadi. Maskur kitobga kirgan Xorazmiy maqolasi taniqli olim Yoqubjon Is'hoqov tomonidan yozilgan.

Xo'jandiy "Latofatnoma"sining matnini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda filologiya fanlari doktori Ergash Fozilovning xizmatlari kattadir. "Latofatnoma" asarining Kobulda saqlanayotgan uyg'ur yozuvidagi matni fotonusxasi asosida hamda Istanbul va Londindagi matnlarining fotonusxalaridan foydalanilgan holda uning transkripsiyasidagi teksti 1980-yilda Toshkentda turkolog olim E.Fozilov tomonidan tayyorlanib nashr etildi.

Sayyid Ahmadning "Taashshuqnoma" asarining transkripsiyasidagi matni turkiy tilni o'rganish nuqtai nazaridan uning grammatik tahlili, izohlari va lugati mashhur turkshunos olim A.Shcherbak tomonidan 1973-yilda nashrga tayyorlanib "Sharq yozuvi yodnomalari" to'plamiga chiqarilgan. "Taashshuqnoma"dan ayrim parchalarni 1927-yilda mashhur olim A.N. Samoilovich ham nashr ettirgan. 1959-yilda chiqqan "O'zbek adabiyotining birinchi tomiga ham "Taashshuqnoma"dan ayrim parchalar keltirilgan. "Latofatnoma" ayrim parchalar esa o'zbek adabiyoti to'rt tomining birinchi kitobida nashr etilgan. "Muhabbatnoma", "Latofatnoma", "Dahnoma" va "Taashshuqnoma"ning to'liq matni M.Abduvohidova, H.Muxtorova, B.Qosimxonov, O.Jo'rayev kabi olimlarning fidoiyligi bilan ilk marta nashr yuzini ko'rdi. Nomalar 1987-yilda "Muborak maktublar" sarlavhasi ostida G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sa'nat nashriyotida chop etildi.

Umuman, nomalarda haqiqiy go'zallik ta'rif va tasvir etish, insoniy muhabbat tuygularini, inson qalbidagi nozik kechinmalarni samimiy ifodalash asosiy o'rin tutadi. Bu goh ma'shuqa va saboga murojaat, goh oshiq qalb izhori tarzida namoyon bo'ladi. Ularning barchasiga xos xislat yuksak badiiyatdir. Nomalar o'zbek mumtoz adabiyotining tarkibiy qismi sifatida atroflicha ilmiy tadqiq qilishga molikdir. O'zbek mumtoz adabiyotidagi ilk nomalarning goyaviy – badiiy

mundarijasini yoritish, g'oya va timsollarni tadqiq qilish malakaviy bitiruv ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. “Muhabbatnoma”, “Latofatnoma”, “Dahnoma”, “Taashshuqnoma”ni tadqiq va tahlil etish Xorazmiy, Xo`jandiy, Yusuf Amiriy va Sayyid Ahmadning noma janri takomilidagi o`rnini aniqlash, ushbu kichik tadqiqotning asosiy maqsadidir. Bu maqsadga erishish yo`lida quyidagi vazifalarni bajarishga harakat qildik:

Xorazmiy, Xo`jandiy, Yusuf Amiriy va Sayid Ahmadning noma janri takomillashtirish va mazmunan boyitishdagi tarixiy xizmatlarini yoritish;

“Muhabbatnoma”, “Latofatnoma”, “Dahnoma” va “Taashshuqnoma” hayotiy falsafaga, teran fikrlarga boy. Nomalardagi inson holati manzarasining noyob tasvirini, uning yangicha, o`ziga xos badiiy ifodasini kuzatish;

Shoirlarning an'anaviy poetik san'atlarni qo'llashdagi badiiy mahoratini ochib berish.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi. Mazkur kichik tadqiqotda Xorazmiy, Xo`jandiy, Yusuf Amiriy va Sayyid Ahmad qalamiga mansub nomalar Istiqlol mafkurasi va bugungi ilmiy tafakkur asosida yaxlit holda tadqiq va tahlil etildi. Har bir nomaning o`ziga xos takomillarini ko'rsatishga asosiy e'tibor qaratildi. “Muhabbatnoma”, “Latofatnoma”, “Dahnoma”va “Taashshuqnoma” mualliflarining ruhiyat manzaralarini chuqur talqin etuvchi shoir sifatidagi mahoratlari kuzatildi. Teranligiga, badiiy san'atlardan unumli va o`rinli foydalanish orqali erishilganligi asoslab berildi.

Tadqiqot manbai. Tadqiqotimizning asosiy manbai “Muhabbatnoma”, “Latofatnoma”, “Dahnoma” va “Taashshuqnoma” ning “Muborak maktublar” kitobida nashr etilgan matnidir.

- O'zbek adabiyoti bo'stoni
Muborak maktublar.
Xorazmiy. Muhabbatnoma
Xo'jandiy. Latofatnoma
Yusuf Amiriy. Dahnoma

Sayid Ahmad. Taashshuqnoma

Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. – 302 b.

Tadqiqotning uslubiy asoslari. Xorazmiy, Xoʻjandiy, Yusuf Amiriy va Sayyid Ahmad nomalarni oʻrganish jarayonida koʻzlangan maqsadga muvofiq tarixiy-siyosiy usulidan foydalandik. Oldimizga qoʻyilgan maqsad va vazifalarni hal etishda oʻzbek va boshqa xalqlar adabiyotshunos olimlarining nazariy qarashlariga, xususan, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton, Vohid Zohidov, Vohid Abdullayev, Abduqodir Hayitmetov, Abdurashid Abdugʻafurov, Rahim Vohidov, Rahmonqul Orzubekov, Yoqubjon Isʼhoqov, Bahodir Sarimsoqov asarlaridagi muhim nazariy – ilmiy xulosalarga tayanib ish koʻrdik.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Ushbu kichik tadqiqotning ilmiy – nazariy ahamiyati, avvalo, Xorazmiy, Xoʻjandiy, Yusuf Amiriy, Sayyid Ahmad nomalarining har tomonlama imkon qadar keng qamrovda tadqiq qilinishidan iborat. Shuningdek, nomalarning shoir tabiati bilan bogʻliq qarashlarga munosabat bildirish muayyan darajada nazariy ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishi oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixini, xususan, XIV – XV asr adabiy muhitini, poetik janrlar tabiatini oʻrganishda, oʻtmish mumtoz adiblar ijodiga oid ilmiy va ilmiy – ommabop ishlar yozishda baholi qudrat xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu ish materiallaridan bitiruv va diplom ishlari yozishda noma janrini boshqa shoirlar ijodi timsolida ilmiy tadqiq qilishda, akademik litseylar, odatda kollej talabalariga maʼruzalar oʻqishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning jamoatchilik eʼtiboridan oʻtishi. Malakaviy bitiruv ishi Buxoro davlat universitetining oʻzbek filologiyasi kafedrasida bajarildi. Shu kafedraning ... yigʻilishida muhokama qilinib himoyaga tavsiya etildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

I.Bob. Noma janrining ilk namunalari.

Xorazmiy o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir. Bu iste'dodli ijodkorning hayoti va faoliyati, adabiy meros haqidagi ma'lumotlar juda kam yetib kelgan.

Shoirning hozircha bizga ma'lum yagona asari "Muhabbatnoma"ning muqaddima va xotimasida uning shaxsi qisman bo'lsada, o'quvchiga tanishtiriladi. Shuningdek, adabiyotshunos N. Malayevning qayd etishicha, shoirning "Muhabbatnoma" asariga ilova qilingan she'riy "hikoyat" ham mavjud bo'lib, unga ijodkorning sharq mamlakatlariga sayohatga chiqqanligi, jumladan, Rum va Tayfundan o'tib, bir do'sti bilan Shoshga safar qilganligi haqida ma'lumot beriladi. (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 1976, 227-228-betlar).

Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si juda ko'p sharqshunos olimlarning e'tiborini o'ziga qaratadi. Jumladan, A. M. Samoylovich, M. F. Koprulizoda, A. M. Shcherbak kabi xorijiy tadqiqodchilar bu borada qiziqarli ilmiy izlanishlar olib borishdi. Shuningdek, o'zbek adabiyotshunoslaridan S. Qosimov 1950-yilda Xorazmiy ijodi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Bulardan tashqari, N. Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi"da va boshqa manbalarda shoir haqida ma'lumot beradi.

Xorazmiy ijodkorning taxallusi bo'lib, uning nomi hamon ma'lum emas. "Muhabbatnoma"da mazkur taxallus bir necha o'rinlarda keltiriladi. Chunonchi, asar xotimasidagi quyidagi baytlarda uning yozilgan yili ham o'z ifodasini topgan: "Muhabbatnoma so'zin shunda aytdim, qomug'in sir yaqosinda bitidim. Nazar birla agar jamsengar Osaf "Muhabbatnoma"ni qilsang musharraf. O'qigil fotihadur qiblayoni.

Suvyunsun banda Xorazmiy ravoni

Bu daftarkim bo'libdur misr qand,

U yetti yuz elli to'rt ichra tugatdi...

(Xorazmiy "Muhabbatnoma" kitobida muborak maktublar. Toshkent, 1987, 39-bet).

Shoir “Muhabbatnoma” ning aksariyat qismini Sirdaryo bo‘yida yozganligini e‘tirof etadi. Asarning yozilgan joyi masalasiga kelganda, tadqiqotlarda Sirdaryo bo‘yidagi Sig‘noq shahri tilga olinadi O‘zbek adabiyoti tarixi. 1-tom. Toshkent, 1978, 187-bet). Ijodkorning taxallusi hijriy 754-yilda (milodiy 1353-1354-yillarning qish faslida) Sirdaryo atrofida yozilgan. “Muhabbatnoma” Oltin O‘rda hukmdorlaridan bolgan Muhammad Jonibekning (1342-1357) Sirdaryo muzofatidagi amaldori Muhammad Xo‘jabekning iltimosiga va taklifi bilan qish faslida ijod etilganligi asarda shoir tomonidan quyidagicha bayon etilgan:

Tabassum qildi, aytdi ey faloni,
Ketgil bizga loyiq armug‘oni.
Ko‘ngil bahrinda ko‘p gavharlaring bor
Ochunda porsiy daftarlaring bor
Muhabbat nardini ko‘plardin utdung,
Shakartek til bila olam tutding
Tilarmankim bizning bila til paydo
Kitobe aylasang bu qish eltek kechar ayyomi foniy,
Jahonda qolsa bizdin armug‘oni
Qabul qildim yer o‘pdim, aytdim, ey shoh!
Eshiking tuprog‘i – davlatli dargoh.
Kuchum yetmishcha ko‘p xizmat qiloyin,
Jahonda ezgu otingni yoyoyin
Bukun tongqa tikin may no‘sh qilg‘in,
Badiha bu g‘azalni chosh qilg‘il (11-12-betlar).

Ko‘rinadiki “shakartek til bila olamni tut”gan Xorazmiy “Muhabbatnoma”gacha ham badiiy ijod bobida yetarli tajribaga ega qalamkashlardan biri ikki tilni ham (forsiy va turkiy) hayotdan olgan zavqini badiiy va ravon ifodalash darajasida bilgan shoir dastlab zamona zayliga ko‘ra, forsiyda qalam tebratdi. Parchada Muhammad Jonibek tilidan keltirilgan ishoraga muvofiq “Muhabbatnoma” uning turkiydagi dastlabki asari bo‘lib chiqadi. Fikrimizcha, bu badiiy uslub qirrasining satrdagi jilosi bo‘lmog‘i lozim. Aslida esa Xorazmiy “Muhabbatnoma”ga qadar

ham turkiyda sheʼrlar yaratgan koʻrinadi. Chunki muayyan tajribaga ega boʻlmay turib, bunday, yirik sheʼriy asarni bunyod qilishni tasavvurga sigdirish dushvordir. Shayx Saʼdiy “Guliston”ining Sayfi Saroyi tomonidan qilingan tarjimasi (1390-1391) ning Layden universiteti kutubxonasida saqlanayotgan bir qoʻlyozmasi tarkibida Xorazmiy taxallusi shoirning quyida matni koʻchiriladigan turkiy gʻazali uchraydiki, bu adabiy maʼlumot ham bizning yuqoridagi xulosamiz foydasiga xizmat qiladi.

Xorazmiy aytur:

Soldi niqob chehratin ul turki xovariy
Boʻldi yana jahon yuzi oynatek oriy.
Tun nafasiga urdi quyoshning shuur ot,
Toʻldi aning nasimi bilan koʻk tijmari.
Qochti xabash cheriki odam qalʼasi taba,
Chiqdi esa ufuq qindin subh xanjari
Anqosi koʻk qofining oʻchti ikkinchi bor,
Yulduz tuyuri barchasi turdi ari-bari.
Doryoqa choʻkdi oy sadaftekk koʻrinmas ush,
Sohilga tushti Zuhra-yu tiladi Mushtari
Soqiy, qadahni sun dagʻi ravonakim,
Boʻldi ravona kol uza xurshid sogari.
Ishrat bila jahonni yigitlikta xush kechir,
Qish hech kishiga qolmadi bu bevafo qari.
Dunyo senga qolurmi, Sulaymonga qolmadi
Ulkim anga musaxxar edi dev-u ham qari.
Xorazmiyning agar tani tuproq boʻlsa ham,
Otin tiri tutar jahon ichra soʻzlari
(Oʻzbek adabiyoti tarixi, 1-tom, Toshkent, 1978, 188-bet). Mazkur gʻazalning turkona ohanggi va uslubi Xorazmiy sheʼriyati ruhini eslatadi. Shunga koʻra, bu gʻazal ham ”Muhabbatnoma” muallifiga tegishli, deyish mumkin.

”Muhabbatnoma”ning ikki qo‘lyozma nusxasi mavjud. Ulardan biri uyg‘ur va ikkinchisi arab yozuvida ko‘chirilgan. Uygur degan kishining topshirig‘i bilan Boqi Mansur baxshi nomli kotib tomonidan ko‘chirilgan. Mazkur qo‘lyozmaning 158-177-varaqlaridan ”Muhabbatnoma”ga o‘rin berilgan bo‘lib, qolgan qismida ”Siroj-ul-qulubi” (Kongillarning nuri”), ”Masala kitobi” (”Masal va matal kitobi”), ”Rohatul-qulub” (”Kongillarning rohati”) kabi axloqiy-ta’limiy asarlar va Mavlono Lutfiy qalamiga mansub to‘rt g‘azal keltirilgandir.

Asarning arab nusxasidagi 1508-1509-yillarda (hijriy 914-yilda) kitobat qilgan. Bu nusxada mustaqil mazmunga ega bo‘lgan ”Hikoyat” asari ilova tarzida keltirilgan. ”Muhabbatnoma”ning XX asrda chop bo‘lgan turli majmua va darsliklarga kiritilgan parchalari uchun arab yozuvidagi o‘sha nusxasi asos qilib olingan. Mazkur nusxadagi ”Muhabbatnoma” unga ilova qilingan she’riy ”Hikoyat” bilan birgalikda, 473 baytdan tarkib topgandir. Xorazmiyning ”Muhabbatnoma” asari muayyan an’analarga ko‘ra, Olloh hamdi bilan boshlanadi. Shundan so‘ng shoir Muhammad Xo‘jabek bilan ko‘rishganini bayon qiladi va ikki turkiy hamda bir forsiy g‘azal keltiradi. Bulardan keyin ”Muhabbatnoma”dan o‘rin olgan masnaviy – ”Muhammad Xo‘jabek madhi” hamda ”Vasf ul – hol aytur” kabi fasllar berilgan bo‘lib, bular asarning muqaddimasini tashkil etadi. Asosiy qism nomalardan tashkil topgan. Shoir ”Muhabbatnoma” muqaddimasida quyidagi masnaviyni keltirib, maqsad-muddaosini o‘quvchilari bilan baham ko‘radi:

Kitobat boshladim, anjomga yetgay

”Muhabbatnoma”ni Misr-i Shomga yetgay

Bu xon uzra saloyi oma qildim,

”Muhabbatnoma”ni o`n noma qildim

Qiloyin ikki bobin porsiy ham

Kim atlas to`n yarashur bo‘lsa milan

Burun alqissa, bek madhin ayoyin

Ush andin so‘ngra noma boshlagoyin (13-bet)

Fahriya tarzida aytilgan bu ajoyib baytlarda Xorazmiy asardagi nomalar sonining o‘ndan iborat bo‘lishini qayd etadi hamda ”Muhabbatnoma”ning 2 bobi (noma)si

forsiy tilda ijod qilishini ta'kidlaydi. Biroq asarning xotimaviy – o'ninchi nomasidan so'ng keltirilgan quyidagi masnaviyda muallif maqsad- muddaosining o'zgarganligini ifodalaydi:

Kel, ey soqiy, kelturgil xush sabuhi,

Kim ushbu dam erur jonning futuhi.

Icholing bodani gullar solisar,

Tanimiz oqibat tuproq bolisar

Bu yerga yetdi soz taxi bo'ldi,

Burun on dedim ula on bir bo'ldi... (35-bet)

Ko'chirilgan iqtibosga ko'ra, shoir "Muhabbatnoma"ni o'n noma tarzida tarkib topmoqchi bo'lgan. Ammo ijodiy ish sharoitida boshdan rejaga kiritgan va shoir o'n birinchi nomani ham bitishga jazm qilgan. Biroq negadir, asarning uyg'ur yozuvidagi nusxasida o'n birinchi noma mavjud emas. Asarning arab yozuvidagi qo'lyozmasiga tayangan adabiyotshunos N.Mallayev "Muhabbatnoma"ning o'n bir nomadan tuzilganini qayd etib o'tgan. Darhaqiqat, "Muhabbatnoma"ning chop bo'lgan nusxalari o'n bir nomadan tarkib topgan va ulardan uchitasi to'rtinchi, sakkizinchi va o'n birinchi nomalari fors-tojik qolgan sakkiz maktub o'zbek tilidadir.

Aksariyat nomalar – masnaviy nomadan tarkib topgandan tashqari, g'azal, kichik soqiynomalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, asar xotimasida "g'azal", "munojat", "qit'a", "xotumatul kitob", mustaqil mazmunga ega "Hikoyat", "Iltimosin aytur" kabi sarlavhalar ostidagi parchalar uchraydi. Asar fard bilan yakun topadi. Arof N. Mallayev fikricha, birinchi noma tarkibida kelgan g'azal Muhammad Xo'jabek tilidan aytilgan ko'rinadi (Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 197, 230-bet). Shunday qilib, "Muhabbatnoma" noma, masnaviy, g'azal, qit'a, madhiya kabi janr namunalaridan tarkib topadi.

"Muhabbatnoma" haqida fikr bildirgan aksariyat mualliflarning ishlarida ayrim munozarali mulohazalar ham nazarga tashlanadi. Bunday bahsli o'rinlar asarning forsiy nomalari, ayniqsa, o'n birinchi maktubiga tegishlidir.

Ilmiy ishimizni yoritib berishda “Muhabbatnoma”ning to`liq mundarijasini keltirsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Muhabbatnoma”

Avval ko`rushganin aytur,

G`azal,

Bayoni boqi aytur,

G`azal,

Masnaviy,

G`azal,

G`azal,

Vasf ul- hol aytur,

Avvalgi nomani aytur,

Masnaviy,

Ikkinchi nomasini aytur,

Masnaviy,

Uchinchi nomasin aytur,

G`azal,

Masnaviy,

To`rtinchi nomasin aytur,

Masnaviy,

Beshinchi nomasin aytur,

Masnaviy,

Oltinchi nomasin aytur,

Masnaviy,

Yetinchi nomasin aytur,

Masnaviy

Sakkizinchi nomasin aytur,

Masnaviy,

To`qquzunchi nomasin aytur,

Masnaviy,

O`ninchi nomasin aytur

Masnaviy,

O`n birinchi nomasin aytur

G`azal

Munojot

Qit'a

Xotimatul-kitob

Hikoyat

Iltimosin aytur

Fard

‘Muhabbatnoma’ asarining yana o`ziga xos bir xususiyati asardagi har bir noma tugallanishidan oldin shoir tomonidan quyidagi misralar takrorlanadi.

Saburdan yaxshi yo`qtur pasha qilsam,

Bu yo`lda sabr yo`q andisha qilsam.

Demak, ‘Muhabbatnoma’ning mukammal tuzilishi quyidagicha:

Birinchi, o`n bir nomadan tashkil topgan.

Ikkinchi, nomalarning turli joylarida 6 ta g`azal keltirilgan.

Uchinchi, har bir nomada bitta masnaviy keltirilishi ham tahsinga loyiq. Xullas, o`n bir nomada o`n bitta masnaviy keltirilgan.

To`rtinchi, asarning xotimasi ‘g`azal’, ‘Munojot’, ‘Qit’a’, ‘Xotimatul kitob’, hikoyat (Mustaqil asar) va ‘Iltimosin aytur’ qismlaridan iborat bo`lib, asar matni bir fard bilan tugaydi.

Demak, ‘Muhabbatnoma’ xilma-xil janrlardan (noma, masnaviy, g`azal, qit’a, madhiya va boshqalardan) tashkil topgan asardir.

‘Muhabbatnoma’ning (‘Hikoyat’ bilan birga) 317 bayti o`zbek tilida, 156 bayti fors-tojik tilida bitilgan bo`lib, go`yo asar butunisicha shiru-shakar usulida yozilgan. Lekin, shuni alohida ta`kidlash kerakki, ‘Muhabbatnoma’ning asosiy tili o`zbek tilidir. Asarning katta qismining o`zbek tilida yozilishi, barcha sarlavhalarining o`zbek tilida nomlanishi va fors-tojik tilidagi nomalarni xotimalovchi bayt sifatida ham o`zbek tilidagi naqarotning kelishi fikrimizning

isbotidir. Mana "Sakkizinchi nomasin aytur"dan olingan "masnaviyga" e'tibor qiling

Ayo ey soqiyi, navoda bar xez,

Ba yoron ko`hna may dar komi jon rez.

Ki may sozad maro jon az tobu-tab

Magar binshinad in otash bon-on ob.

Sabirdin yaxshi yoqdir pesha qilsin,

Bu yolda sabr yoq andesha qilsin.

O`zbek adabiy tilining ravnaq topishi, uning madaniy, hayotda kengroq o`rin egallay boshlashi, o`zbek kitobxonlarining ehtiyoji va talabi fors-tojik tilidagi asarlari bilan shuhrat topgan Xorazmiyni o`z ona tilida o`zbek tilida ham ijod etishga, bu tilda "Muhabbatnoma"dek katta badiiy asar yaratishga ilhomlantirdi; u o`zbek klassik adabiyotida ilk zullisoniy (ikki tilda ijod qiluvchi) shoir bo`lib yetishdi, fors-tojik adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo`shdi, o`zbek adabiyoti klassikalaridan biri bo`ldi.

"Muhabbatnoma" aruzning hazaj (hazaji musaddasi maqsur – mafoiylun, mafoiylun, mafoil) bahrida yozilgan; shoirning so`z boyligi va o`zbek tili talaffuziga yaxshi e'tibor berishi hamda ayrim g`azallarning bevosita muzika kuylariga muvofiq yaratilishi she'riy misralarni ravon va ohangdor qilgan. Zotan, "Muhabbatnoma" misolida biz san'atning ikki turi – poeziya va muzikaning yaqindan bog`langanini va biri ikkinchisining ravnaq topishiga ta'sir etganini ko`ramiz. Xorazmiyning ayrim gazallarini "Husayniy", "Sifahon" kabi maqomlarda aytilshini ta'kidlaydi:

Husayniy uzra tuzib so`z,

Mug'anniy bu g`azalni qildi og`oz

Iroqiy mutrube xojai hush ilhom

Ki xond in g`azalro dar Sifahon.

"Muhabbatnoma" turli janrlardagi she'riy formalarni o`z ichiga oladi va shoir shu janrlarga xos qofiya usulini to`la saqlaydi, u radifdan ham ustalik bilan foydalanadi.

”Muhabbatnoma” o`zbek dunyoviy adabiyotining ilk yirik asarlaridan biridir. Tarkidunyochi shayx va zohidlarga qarshi kurashib, hayotni e`tirof qilgan shoir, o`z davrining farzandi sifatida ishq-sevgini diniy nuqtayi nazardan asoslashga intilib:

O`shal kunkim, seni xoliq yaratti,

Seni dilbar, meni oshiq yaratdi,

degan edi. ”Muhabbatnoma” bunday diniy-ilohiy tushunchalari hamda feodal-aristokratik qarashlariga qaramay, o`z davrining ijtimoiy fikrlari va so`z san`ati taraqqiyotida progressiv bir qadam bo`lgan edi. Bu asar o`zbek klassik adabiyotida dunyoviy tematikaning rivojlanishiga bir hissa bo`lib qo`shilishi bilan birga adabiy janrlarning, ayniqsa, nomaxillikning takomilida katta rol o`ynaydi. Shoir:

Sening ishqingda Xorazmiy yo`qoldi,

Va lekin yer yuzida oti qoldi.

Buni kim ishq birla bir o`qug`ay,

Haqiqatan olamin munda bilg`ay.

Eshitqon bu kitobni ham bitg`ay,

Tilarmenkim duoda yod qilg`ay. – degan edi. Xorazmiy yanglishmadi. Uning asari kitobxonlarga manzur bo`ldi va o`zbek klassik adabiyoti taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. Xojandiyning XIV asrda ijod etgan ”Latofatnoma”si, Amiriyning XV asrda yaratgan ”Dahnoma”si va Said Ahmad ibn Mironshohning ”Taashshuqnoma”si bevosita ”Muhabbatnoma”ning samarali ta`siri bilan vujudga kelgan asarlardir. ”Latofatnoma” muallifi Xo`jandiy ”Muhabbatnoma” va shoir Xorazmiy haqida bunday degan edi:

Muhabbat jomidin ichsang sharobe,

”Muhabbatnoma”ga aytsang javobe.

Xo`jandiy so`zlaring Xorazmiy miskin

Eshitsa: ”Balli!, - deb qilg`ay tahsin.

1.02. Xorazmiy nomalarida ma'shuqa husn-u jamoli, visol ishtiyoqi va hijron istirobi talqini.

Noma o'z nomi bilan ham ishq-sevgi asaridir. "Muhabbatnoma"dagi sevgi dunyoviy mohiyatga ega bo'lib, u insonning insonga bo'lgan sevgisini kuylaydi, uni e'tirof qiladi, u insonni tarkidunyo qilishga emas, balki yashashga hayotning qadr-qimmatini bilishga chaqiradi. "Muhabbatnoma" hayotni, hayot mahbubasini kuylaydi, uni jannat hurlaridan afzal qo'yadi:

Soching bir torina ming hur yetmas

Yuzingning nurina ming nur yetmas

Agar bersa suyurgab haq taolo

Kerakmas sensiz firdavsi a'lo

Yor (inson) hur-parilardan ham ko'rkli bo'lib, hatto osmon farishtalari ham unga oshiq bo'ladilar:

Ko'ngulga jondin ortiqroq keraksen,

Pari-yu hurdin ham ko'rklik sen,

Sizingtek kimda bor shakl-u shamoli

Shoir (oshiq) jannat hurlari deb yoridan voz kechmaydi, u jannatda ham o'z yori bilan birga bo'lishni istaydi, yorsiz jannat uning ko'ziga do'zax bolib ko'rinadi.

Sumantek orazing guldir tikansiz,

Menga do'zax erur – uchmaq sensiz.

Yorning husn-jamoli olamga quyoshdek nur taratadi:

Agar kun tugmasa ham yoqtu qilgay,

Yuzing nuri bu dunyoning saroyin.

Shunga ko'ra, quyosh xijolat bo'lib, butun tun betiga chodir tortib oladi:

Zi sharmi royi tu xushidi xovar

Qashad dar sar zi shab to subh chodar bihisht lolazorning qizilligi ham yorning qizil chehrasi tufaylidir – bihishte lolazor az gazoyi tust.. ?

Yor masihdek bemorlarga shifo, o'liklarga jon bag'ishlaydi (diniy afsonaga ko'ra, Masih – Iso shunday qudratga ega emish). Shoir yorni Masihga o'xshatish bilan diniy afsonaviy tushunchani targ'ib qilmaydi, balki Masihning «qudrati» va

« mo`jizakor »ligini oddiy insonga ko`chirib, tarkidunyochi shayx va
zohidlar « baxtsiz bir soya » deb qaragan insonni himoya qiladi, uni ulug`laydi :
Qamuq ko`rluklar uzra podshosen,
Masih anfosliq, Yusufliqosen
Yor shunchalik ko`rkam va dilraboki, uni ko`rgan tarso (butparast) hatto sanam
(but)idan voz kechadi :
Seni kechar ko`rsa tarso sanamdin.
Vujudqa kelmadi sendek adamdin.
Yor faqat husn-jamoli bilangina emas, balki aqli va donishmandligi hamda bilimi
bilan ham go`zaldir :
Bilik bilmak ichinda javohiriy sen,
Vale husn ichra javhardin ariysenu.
Bunday yor hatto Aflotunni ham maftun qilib, uning inon-ixtiyoridan ustun
chiqadi:
Gar Aflotun sening ishqingga tushsa,
Berur elga qamuq tadbir-u royin.
Vafo, odamgarchilik va kambag`alparvarlik fazilatlarini yorning husniga husn
qo`shadi. Shunga ko`ra, shoir unga shunday murojaat qiladi:
Bo`yung sarv-u sanobardek beling qil,
Vafo qilgan kishilarga vafo qil.
Chechak derman yuzunguzga qamar ham,
Xaloyiq sevganin xoliq sevar ham,
Qachonkim shod etsang gamgina rahm et
Agar sulton esang, miskina rahm et.
Yorning yaxshi sifatlarini maqtab ardoqlab shoir uning vafosizlik, shavqatsizlik ,
iltifotsizlik kabi xislatlariga befarq qarab turolmaydi, uni qattiq qoralab, shikoyat
qiladi. Shuni ham ta`kidlash lozimki, o`tmishning boshqa progressiv
yozuvchilarida bo`lgani kabi, Xorazmiyning yordan shikoyat qilib aytgan so`zlari
kengroq va chuqurroq ijtimoiy mohiyatga ega bo`lib, yashagan muhitining

adolatsizlikka qarshi ma'lum norozilik kayfiyatlarini ham ifodalaydi. Buni quyidagi misralardan ravshanroq ko'rish mumkin:

Ayit, mandinkim ul miskin erur, oh,

Qachon engay gadoying evuna shoh.

Bu misralardan fors-tojik tilidagi to'rtinchi nomadan ham aynan berilgan:

Ba Xorazmiy kujo vaslat rasad, oh,

Kujo mehmoni darvesh shunda ast shoh

Biroq oshiq hijron iztirobi va yor iltifotsizligi tufayli sevgisi va sevgilisidan voz kechmaydi, u vafo va sadoqatiga sodiq bo'lib qoladi:

Ko'ngulga o'zganing mehrin yovutman,

Yiroqliq birla men sizni unutman.

Shoir umidsizlikka tushmaydi, yorning visoliga erishib, baxt-sadoqatga muyassar bo'lishiga ishonadi:

Erurman vaslingga doim talabgor,

Negakim tun uzun bo'lsa tongi bor.

Topilgay maqsudim topqungda bori,

Saodat qilsa Xorazmiyga yori.

Og'ir uyquchi baxtim necha yotqay,

Visoling shashriqidin ham tong otqay.

Shunday qilib, Xorazmiy "Muabbatnoma"da dunyoviy sevgini kuyladi, husn-jamoli va aql-odobi bilan kishini maftun qiluvchi yorni ta'rif qildi, xassoslik bilan sevgining zavq-shavqini, visol shodligi va hijron iztirobini tasvirladi. Vafosiz va jafokor yorni tanqid qilib, yashagan muhitning ayrim illatlariga qarshi norozilik kayfiyatlarini ifodalaydi, tarkidunyochi shayx-zohidlarga qarshi kurashadi.

Pari ruxsorlarning ko'krabo'yi,

Yuzing – Navro'z-i qoshing-bayram oyi.

Ma'shuqa – pari ruxsorlarning eng ko'rklisi. Uning yuzi – Navro'z. Navro'zning lugaviy ma'nosi "yangi kun", "kun" turkiy tilda quyoshning ma'nodoshi hisoblanadi. Demak, yorning yuzi quyosh, uning qoshi esa – bayram oyi. Bayram oyi deganda, Navro'z bayrami nazarda tutiladi. Ma'lumki, hamalning birinchi kuni

yangi yilning boshi sifatida bayram qilinadi va "Navro'z bayrami" deb ataladi. Shu kuni hamal oyi boshlanishi bilan samoga yangi oy ko'rinadi. Yangi oy – hiloldir. Hilol qoshni eslatadi. Shoir ma'shuqa yuzini Navro'zga qiyoslamaganda edi, uning qoshini bayram oyiga tashbeh qilolmagan bo'lardi.

Nomalardan faqat ikkinchi noma "Tong nasimiga murojaat" bilan boshlansa, boshqa nomalar bevosita ma'shuqaning o'ziga murojaat qila boshlaydi.

Shoir har bir nomada ma'shuqaning beqiyos mubolag'aviy tavsifini beradi:

1-noma:

Ayo ko'rk ichra olam podshohi,
Jahon tutdi sening husning sipohi.

2-noma:

Ayo xurshiddek olam chirog'i
Munavvar chehranggiz firdavs bog'i

6-noma:

Ayo bo'yung sanubar, chehrasi oy,
Quyosh yanglig' jamoling olamoroy.

Agar nomalarda ma'shuqa husn jamoli xilma-xil mubolagaviy tashbehlarda, oshiqni o'ziga maftun etuvchi bir romantik qiyofada tasvirlanib, faqat ayrim baytlardagina uning xarakteridagi bevafoqlik tilga olinsa, o'ninchi noma butunlay ma'shuqaning nomehribonligi, vafosizligini tasvirlashga bag'ishlaydi.

"Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,

Vafo qilgan kishilarga vafo qil

Oshiq o'z yorini dunyodagi eng chiroyli qiz deb ta'riflaydi. Uning husni-jamolini o'xshatishlar orqali yanada go'zal va chiroyli ta'riflaydi. Yorning husni jamoli oldida mag'lub bo'lgan oshiq uni bir umrga sevishini va'da qiladi va ayni paytda ma'shuqaga oshiqni ham sevishni ta'kidlaydi. Bu g'azal oshiqning sevgisini qabul qilmagan ma'shuqaga otinch tarzida yozilgan she'rdir.

Aytqil ey visoling umr bog'i

Eshiking tuprog'i kavsar bulog'i

Shoir yorga shu darajada maftun bo'lganki, uning butun o'y- fikrlar yor vasli bilan band. Oshiq qachon yor vasliga yetadi – mana shu payt eng go'zal dami bo'lib qoladi.

Oshiq ma'shuqani shu darajada kuchli sevadiki, ma'shuqaning eshigi ostidagi oddiygina tuproqni ham kavsar bulog'iga tenglashtiradi. Odamlar kavsar bulog'iga qanchalik intilsa, shoir ma'shuqa ishtiyoqida xuddi mana shuncha kuyib yonadi. Oshiq yoriga aytgil deb murojaat qilib unga savol beradi va o'zining unga bo'lgan muhabbati qanchalik samimiy ekanligini aytib o'tadi.

Seni ko'rgan o'zidin yot bo'lur,
Ruhingni ko'rsa, ming shah mot bo'lur,
Yorni shunchalik go'zal qilib ta'riflaydiki, uni bir martagina ko'rgan odam es-hushidan ajralib qoladi. Yor shunchalik go'zalki, uni ko'rgan odam xoh u shoh bo'lsin, xoh gado es-hushini yo'qotadi va xuddi shaxmat o'yinidagidek mot bo'lib ma'shuqaning asirasiga aylanib qoladi.

Ushbu misrada oshiq beparvo yorga nisbatan o'zining hol – ahvolidan ham xabar beradi.

Ishimizning shu o'rniga kelganda lirik chekinish qilib "Muhabbatnoma" asariga qisqacha sharh berib o'tsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Xorazmiy bu asarida tasavvuf talqinlari orqali inson go'zalliklarini, insoniy ishqni ulug'lab, o'zbek adabiyotida taraqqiyparvar romantik kayfiyatlarni kuylashni boshlab beradi. Insoniylikni ulug'lash, insoniy go'zallikni kuylash demakdir. Shoir ma'shuqa go'zalligini tarannum etish, unga bo'lgan oshiq muhabbatini, muhabbatdagi sadoqatini ta'rif etish orqali ezgu his- tuyg'ularini ardoqlaydi. Zero, tasavvuf adabiyotining dastlabki mazmun ham hayotni, insonni sevish, hayotdan bahramand bo'lishdir "Muhabbatnoma"da vasf talqinlari orqali inson ruhiy dunyosining boy tebranishlari ochib beriladi.

Seni jonimdan ortiqroq sevaman

Bu so'zda haq bilur yolg'on yo'q, ey jon

Oshiqning ma'shuqaga urgan zori. Oshiq o'zining sevgisining isboti uchun Ollohni o'rta qo'yadi. Oshiq yorini shunchalik sevadiki, uning ishqida kuyib kul

bo'lyapti. Oshiq sevgilisi uchun hamma narsadan hattoki, o'zining shirin jonidan ham kechishga tayyor bularning evaziga esa u o'z yorining visoliga yetsa bo'lgani, unga bundan boshqa narsa kerak emas. Uning bu so'zlari yolg'on emas, buning rostligini faqat Olloh biladi. Bu g'azalda oshiq o'z yoriga juda katta bir hissiy kuch bilan talpinib turganligi yaqqol sezilib turadi.

Sening ishqingda Xorazmiy yo'qoldi,

Va lekin yer yuzinda oti qoldi.

Oshiq ma'shuqasining ishqida shunchalik yonib, Majnunsifat bo'lib dunyodan begonalashib yiroqlashib ketdiki, endi unga bu dunyo qiziqmas. U shunchalik yonib kuyganidan xalq ichida oshiq siymosida gavdalanadi va xalq orasida u haqidagi afsona va rivoyatlar tarqaldi. Butun bir xalqqa uning sevgisi namuna bo'ldi.

Xuddi mana shu o'ringa kelganda yer yuzida oti qoldi, so'zlari bilan o'zining buyuk asari "Muhabbatnoma"ning yaratilganligiga ham urg'u berib o'tadi.

Ko'ngul ikki jahonni ko'zga ilmas

Sening ishqing umrning hosili, bas

Asarning eng kulminatsion nuqtasi mana shu yer deb aytsak mubolag'a bo'lmagan bo'lar edi. Oshiq yorini shunchalik sevadiki, uning ko'ziga nafaqat bu dunyo balki, aytish joiz bo'lsa, hattoki u dunyoni ham o'ylamaydi. Oshiqning murodi bitta u ham bo'lsa yor ishtiyoqi. U bu dunyoda yashab topgani faqat yorga bo'lgan chin sevgisi. Ko'ngil yorga tamomila shaydo bo'lgani yaqqol bilinib turibdi. Shoir ham ayni damda yor jafosi bilan yashay olganligini sezish u qadar qiyin ish emas.

Farishta ko'rsa bo'lgay sizga moyil,

Sizningdek kimda bor shakl-u shamoyil.

Yor shunchalik go'zalki, uni ta'rif va tasir qilishning umuman imkoni yo'q. Yorning bunchalik go'zalligini insonku inson hattoki, farishta ko'rsa ham undan ko'z uzolmaydi. Yorning husn-u malohati oldida farishtalar ham ip yecholmay qoladi. Olloh madh qilinayotgan ma'shuqani shunchalik go'zal qilib yaratganki,

unga tenglasha oladigan go`zal yer yuzida yo`q. Oshiq mana shunday go`zalni sevib devonaga o`xshab yordan boshqa narsani o`ylamaydi.

Men asru benovo siz muhtashamsiz,

Latifu nozig-u zebo sanamsiz.

Oshiq o`zini yorning oldida shunday xokisor tutadiki, u tamomila ma'shuqaga shaydo bo`lib turgan. Oshiq ma'shuqani shoh o`zini esa gadoga tenglashtiradi. Yorning shunchalik go`zal qilib ta'riflaydiki, uni latifligu, noziklik bobida tengsiz deb hisoblaydi. Oshiq ma'shuqa vasli uchun o`zini gado sanashga ham rozi. Zeroki, har qanday shoh ham ma'shuqaning oldida gadoga aylanadi va unga shubhasiz, bosh egadi. Shoir aytadiki "Mening dardimga darmon vasl erur bas". Bundan ko`rinib turadiki, oshiqqa visol bo`lsa bo`ldi. Bu yo`lda uni shoh deydilarmi gadomi unga farqi yo`q. Oshiq har qanday aziyatda ham ma'shuqasini o`zining sultoni deb biladi.

Ug'on Yusuf jamolin sizga berdi,

Muhabbat kinyiyosin bizga berdi.

Bu yerda shoir o`z misralarini tasavvuf bilan bog`laydi va o`z g`azaliga shohiy tushunchalarni ham olib kiradi. Bu misralarda oshiq tilidan quyidagi fikrlar bayon qilinadi. Olloh ma'shuqani yaratgan paytda uni shunday go`zal qilib yaratdiki, dunyoning eng go`zal insoni bo`lgan Yusufga teng qildi. Yorning bunchalik go`zalligini ko`rgan oshiq esa unga bu ko`rinmas ip bilan bog`lanib qoladi. Bu o`rinda oshiq shukronalik tuyg`usini ham takidlab o`tadi. Olloh oshiqqa muhabbat qiyofasini berganidan manmun va bu bilan faxrlanadi.

Ayoqing, o`pmakim qul qildi odat,

Sulaymon bo`lmadi shundoq saodat.

Yorning go`zalligini ko`rgan oshiq unga bor vujudi bilan talpinadi, hattoki, uning oyog`iga boshini qo'yish ham unga juda katta baxt bo`lib tuyiladi. Oshiq yorga shunchalik talpinadiki, hattoki, bunday talpinish Sulaymonga ham bo`lmaganligi haqidagi o`z fikrlarini "Muhabbatnoma"ning to`qqizinchi bobida juda go`zal tarzda ifodalay olganligi tahsinga loyiq.

Ko`ngul sensiz tilamas tanda jonni,

Ko‘rar yuzingda Xorazmiy jahonni.

“Muhabbatnoma” asarining eng kulminatsion joyi ham menimcha mana shu yerda bo‘lsa kerak. Oshiq ma’shuqani shunchalik sevadiki, tarozining bir pallasiga sevgisini boshqa pallasiga esa o‘z jonini qo‘yganda oshiq hech ikkilanmasdan yorni tanlaydi. Oshiqqa bu dunyoda hayot faqat ma’shuqa bilan uning visolisiz unga na dunyo va na bir boylik kerakmas. Oshiq yor visoli uchun bu dunyodan butunlay kechgan va barcha sinovlarga tayyor ekanligini asarda qayta-qayta takrorlaydi. Oshiq ma’shuqaga shu darajada bog‘lanib qolganki, uning o‘y-xayollarini butunlay egallab olgan, buni qanday anglab olishimiz mumkin. Agar mabodo ma’shuqa xafa bo‘lib qolsa, oshiqning ko‘ziga dunyo tor bo‘lib ketadi. Agar ma’shuqa xursand bo‘lsa, oshiqqa ham bu dunyo go‘zal va betakror bo‘lib ko‘rinadi. Xuddi mana shu uchun Xorazmiy “Ko‘rar yuzingga Xorazmiy jahonni” deb baralla aytadi va hattoki, shu o‘rinda ham oshiq bu so‘zlaridan faxr tuyg‘ularini sezib turadi.

Bog‘ishlading qonim sulton sen oxir,

Ko‘zimga nur tanishga jonsen oxir.

Oshiq ma’shuqaning visoliga yetishishga harakat qiladi, uning bilan suhbat qurishga intiladi. Visol onlarini intizorlik bilan kutadi. Oshiq ma’shuqani beafoqlik qilmaslikka, vafo va sadoqatda mumtoz bo‘lishga chaqiradi. Oshiq aytadiki, yor menga shunchalik kerakki, usiz bir daqiqa yasholmaydi. Ma’shuqaning o‘rni oshiqning hayotida shunchalar beqiyoski, oshiq ma’shuqani ko‘zidagi nurga, qo‘yingki aytish joiz bo‘lsa tanidagi jonga qiyoslaydi. Bundan ko‘rinadiki agar insonning ko‘zi ko‘rmasa uning hayoti zimistonga aylanadi. Agar, ma’shuqa bo‘lmasa oshiqning hayoti ham mana shunday qorong‘ilik qa‘riga g‘arq bo‘lib ketadi. Shu o‘rinda shoir yana bir kuchli o‘xshatishni qayd qilib o‘tadi. Mabodo odamning tanasida jon bo‘lmasa nima bo‘ladi unda inson o‘lik sanaladi. Ma’shuqa ham oshiqning tanasidagi jonga o‘xshatiladi. Agar ma’shuqa ketib qolsa, oshiqning tanasidan joni chiqib ketgandek bo‘ladi. Shuning uchun ma’shuqa oshiqning hayotida hamisha bo‘lishi kerakligini qattiq tayinlaydi.

Ko‘zum ko‘rdi jamoling shevasini,

Ko'ngul totmadi bog'ing mevasini

Bechora oshiq ma'shuqaning husnu jamoli haqida aytib, unga ishq tushganidan zorlanib titradi. Oshiq ma'shuqani ko'rgan, ammo vasliga yetolmay qiynalmoqda. Uni qanchalik sevmasin uning nigohiga muhabbatiga yetolmaganidan kuyinib yozadi. Lekin oshiqning iltijolari e'tiborsiz qoladi, oshiqqa jabr-sitam ortib boradi. Shunga qaramay, oshiq ma'shuqaning barcha sitamlariga sabr-bardosh bilan chidaydi. Ammo baribir sabr-kosasi to'lib faryod qiladi va shu misralarni bitadi. Oshiq yor vasliga yetolmaganidan juda qiynalib yozadi.

Bo'yungtek sarv yo'q boston ichinda,

Yuzing nuridin oy nuqson ichinda.

Oshiq o'z yorini shunchalik go'zal qilib ta'riflaydiki, bu dunyodan undan go'zal inson yo'q deb hisoblaydi. Uning go'zalligini ko'rib ich-ichidan yonadi va ayni damda shunday go'zalni sevib qolganidan mamnun. Ma'lumki adabiyotimizda go'zallik timsoli oy deb ataladi. Barcha oshiqlar o'z yorini oyga qiyoslaydi ammo, bu yerda oshiq boshqacha tavsir qiladi. Uning fikricha, yorning go'zalligini ko'rgan oy o'zining undan xunukligini ko'rib uyalib qoladi.

2.01. Xo‘jandiy ”Latofatnoma”sining o‘ziga xos xususiyatlari.

Xo‘jandiyning ”Latofatnoma” asarining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilishdan oldin asar haqida uning bizgacha yetib kelish jarayoni haqida ozgina ma’lumot berib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XV asrning birinchi choragida yashab ijod etgan, o‘zining ”Latofatnoma” asari bilan o‘zbek adabiyotini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan shoirlardan biri. Shoirning biografiyasi, tug‘ilgan va vafot etgan yili haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Taxallusidan Xo‘janddan ekanligi bilinadi.

Xo‘jandiyning ”Latofatnoma”si XV asr boshlarida (1411-yillar) Xorazmda hukmronlik qilgan Temurning avlodlaridan biri Sulton Mahmudga bag‘ishlangan. Shuni ta’kidlash kerakki, bu asarda Xorazmiyning ”Muhabbatnoma”sidek har bir nomadan so‘ng g‘azal keltirilmaydi, fard, qit’a va munojotlar ham yo‘q.

”Latofatnoma” asari masnaviy formasida (a,a,..b, b ...) yozilgan va qofiyalangan.

Asarda ishlatilgan badiiy tasvirlash vositalari, usullari esa an’anaviy shaklga ega. Shoir o‘zining barcha imkoniyati va mahoratini bu asarda ishga solgan.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, bizgacha ”Latofatnoma”ning uch nusxasi yetib kelgan. Uning ikkitasi Kobul kutubxonasining muzeyida, bir nusxasi Istanbulda va yana biri esa Britaniya muzeyida saqlanadi. Qo‘lyozma hijriy 893 (milodiy 1488) yilda ko‘chirilgan bolib, 313 baytdan iborat.

”Latofatnoma” asarining Kobulda saqlanayotgan uyg‘ur yozuvidagi matni fotonusxasi asosida hamda Istanbul va Londondagi matnlarining fotonusxalaridan foydalanilgan holda uning transkripsiyasidagi matni 1980-yilda Toshkentda turkolog olim E.Fozilov tomonidan tayyorlanib, nashr etildi.

Shuningdek, bu asarning Britaniyadagi fotonusxasidan ayrim parchalar ”O‘zbek adabiyoti” uch tomligining 1-kitobida ham nashr etilgan.

Xorazmiy mog‘ullar istilosidan keyingi tushkunlik davrida yashab, jamiyat taraqqiyotida endigina uyg‘onib kelayotgan hayotiy mayllarni, hayotdagi turli ziddiyatlarni kuylagan bo‘lsa, Xojandiy mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi nisbatan barqarorlikning sadolari sifatida o‘z davri ilgor qarashlarini ifodalab hayotni xushchaqchaq o‘tkazishga intilish, tarkidunyochilik qarashlaridan

uzoqlashish, hayot go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishga intilishni ajoyib badiiylik bilan yoritishga bel bog‘lagan san’atkordir.

Xorazmiy ”Muhabbatnoma”sida bo‘lgani kabi Xo‘jandiyning ”Latofatnoma”sida ham muallif yaqqol, faol ishtirok etadi. Xorazmiy o‘z davrining adabiyot ixlosmandi bo‘lgan Muhammad Xo‘jabek taklifiga muvofiq ”Muhabbatnoma”ni yozishga kirishganini bayon etsa, Xo‘jandiy ”Latofatnoma”ning yozilish sabablari to‘g‘risida shunday deydi:

Tashakkurda turur ermish sahargoh,
Eshikdin bir juvon kirdi nogoh...
Firoq otishda bag‘ri pora bo‘lg‘on
Elindin ishq uchun ovvora bo‘lg‘an...
”Seni shoir deb ayturlar xaloyiq.
So‘zungdan tuhfa keltur bizga loyiq.
Tilarman sendin ey qoni malohat,
Ki bersang jonimga so‘z bilan rohat.
Muhabbat jomidan ichsang sharobe,
”Muhabbatnoma”ga aytsang javobe.

Xo‘jandiyning bu asarini yaratishda Xorazmiy izidan boradi, biroq uning yo‘lini takrorlamaydi. Zotan, so‘z san’atida hamma bir-birining shogirdi-yu, biroq har bir san’atkor o‘z ijodiy yo‘liga ega, bu o‘rinda ham shunday bo‘lgan. Garchi ”Latofatnoma” asarini yaratishda Xo‘jandiy Xorazmiy ”Muhabbatnoma”sidan ijodiy ilhomlangan bo‘lsa, ham, kompozitsiya, obrazlar talqini tabiat manzaralarini yaratishda o‘ziga xoslikka erishadi.

Xo‘jandiyda ham asar xuddi Xorazmiydagi kabi oshiq nomidan ma’shuqaga qarata yozilgan nomalar asosiga qurilgan.

Xorazmiyda nomalar 10 ta bo‘lsa, Xo‘jandiyda ham 10 ta nomadan iborat. Bu haqda shoir shunday deydi:

Latofattin telim handomo qo‘ydim
Aning otin ”Latofatnoma” qo‘ydum (53-bet)
Tilimda so‘z, elimda xoma bo‘ldi,

“Latofatnoma” ham o‘n noma bo‘ldi (40-bet)

“Latofatnoma”da Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidagi kabi g‘azallar, qit‘a, fard, masnaviy janrlaridagi asarlar yoq. “Muhabbatnoma” asarida Xorazmiy taxallusi 16 o‘rinda kelgan bo‘lsa, “Latofatnoma”da Xo‘jandiy taxallusi faqat 6 o‘rindagina ishlatilgan. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarida har bir nomadan keyin 3 baytdan iborat masnaviy keltirilib, unda soqiyga murojaat qilinadi, ma’lum ma’noda noma yakunlanadi. “Latofatnoma”da har bir nomaning oxirida soqiyga murojaat etuvchi bir bayt keltirib, noma yakunlanadi:

Kel ey soqiy, bu kun majlis quroli,

Zamoni aysh etib, xush o‘ltiroli.

Shunisi xarakterli, nomaning go‘yaviy yonalishiga qarab, soqiyga murojaat etilgan baytning ruhi ham o‘zgarib boradi. Masalan, bahor fasli ta’rifiga bag‘ishlangan beshinchi nomadan keyin shoir shavq-u zavq bilan shunday to‘xtamga keladi:

Sharobu shohidu changu chagona,

Belim aysh etkim, ush kechdi zamona (150-bet)

Lirik qahramonning o‘ta ziddiyatli ruhiy kayfiyatini ifoda etuvchi yettinchi nomaning oxirida esa:

Kel, ey soqiy, qadah keltur icholing,

Zabone uslubon jondin kechoning (54-bet)

deb xulosa qiladi. Bu hol nomalar xotirasida keltirilgan soqiyga murojaat bilan aytilgan bayt. Shu nomaning ruhini aks ettiruvchi yakuniy xulosa ekanligini hamda muallifning qarashlari ifodasi ekanligini ko‘rsatadi.

“Latofatnoma” asaridagi muhim boshqa nomalardan farq qiladigan alohida xususiyat shundaki, bu asarda muallif peyzaj lirikasiga tabiat lavhalarining tasviriga alohida e’tibor bergan. U asarning muqaddimasida erta tong lavhasini shunday tasvirlaydi:

Sahar vaqtidakim, sultoni xovar

Jamolingdin jahon bo‘ldi munavvar

Olib nayza eliga Xusravi Chin

Xabash sultonini qavdi jahondin
Shahi Mashriq alam-alamga urdi.
Sipohi zangi qorquv yuz yoshurdi
Chiqardi ersa shoh xanjar belidin
Xabash sultoni qochdi Rum elidin
Sipohi turk bo'lmasa sipohi
Xazinat tutdi hindular sipohi
Xurusi subhidam faryod oshurdi
Kecha zog'i yumurqasin yoshurdi

"Latofatnoma" asari tuzilishidagi muhim yangilik undagi beshinchi nomadir. Bu noma bahor tasvirini chizishga, havoning musaffoligi, turli-tuman gullar, chechaklarning alvon-alvon ochilishi, qushlarning bir-bir bilan quvib o'ynashi, bulbullar xonishi, sozandalarning chang, barbat va boshqa musiqa asboblarda xilma-xil kuy chalib, xonish qilishi va boshqa manzaralarni butun jozibasi bilan gavdalandirishga bag'ishlangan.

Xo'jandiyning "Latofatnoma" asari o'zining go'yaviy mazmuni, tuzilishi, obrazlarning talqini bilangina emas, balki badiiy tasviriy vositalari, qofiyalanishi, xalq og'zaki ijodidan unumli foydalanilganligi jihatdan ham xarakterlidir. Ayniqsa, shoir qofiyada tajnisni (omonim) so'zlardan istifoda etadi. Xalq og'zaki ijodini boyliklardan: maqollar, hikmatli so'zlar, matallar, afsona va rivoyatlarini ko'p qo'llaydi. U "Latofatnoma" asarda ma'noli, chiroyli ifodalash uchun xalq og'zaki ijodi materiallarini qayta ishlagan holda o'z asari satrlarida mahorat bilan singdiradi:

Muallifning o'z talqinlari davomida irsoli masal, talmeh, kontraz, tashbeh, mubolag'a, litota, tazod, tajohilu orifona, laf va nashr, tanosub, kitobot singari badiiy san'atlarni mahorat bilan qo'llaganligi uning yuksak badiiy san'atkorligidan dalolat beradi. Ayniqsa, asarning oltinchi nomasi deyarli kontras usuli bilan yaratilganligini shoir tomonidan shu san'atni puxta egallaganligini ko'rsatadi.

Xo'jandiy o'z asarida Xorazmiy an'analarini davom etgan, noma janrini rivojlantirdi. Davr adabiyoti mavzusini nomalariga asos qilib oldi. U o'zining bu

asari orqali insonning hayotiy intilishlarini, orzu-istaklarini ifoda etishga harakat qildi va uni muvafaqqiyatli bajarishga muvassar bo'ldi. Shoir "Muhabbatnoma" an'anasini davom ettirib, o'z asarini oshiqning ma'shuqaga yozgan 10 nomasidan iborat bo'lib yaratgan bo'lsa ham, obrazlar talqiniga ham ko'plab yangilik kiritdi, ayniqsa, oshiq ma'shuqa obrazlarini talqin etishda yangi usul qo'lladi. Ma'shuqani faqat xilma-xil ta'rif va tavsirlar bilan insonni o'ziga maftun etuvchi jozibali qiyofasini tasvirlash bilan cheklanib qolmasdan, uning xarakteridagi bevafoqlik, jafakorlik xislatlarini keng yoritishga ahamiyat berdi va bu bilan o'zi yashayotgan zamondagi salbiy xususiyatlariga ishora qiladi, asarning zamonaviy ruhini oshiradi.

Shuningdek, oshiq obrazini mavhumlik doirasidan hayotiylik doirasiga olib chiqadi. Oshiqning ishq-muhabbatga sobitqadamligini, jabr-u jafosi natijasida chekkan alam-iztiroblarining keng manzarasini yoritishga muvaffaq bo'ldi. Natijada oshiq obrazining real qiyofasi namoyon bo'ldi, asarning epiklik xususiyatlari kuchaytirildi.

Xo'jandiy asarlarda o'zigacha yaratilgan badiiy asarlarda qo'llangan an'anaviy tasvir vositalaridan foydalangan bo'lsa ham, novator shoir sifatida ko'plab yangi obrazlar yaratish yo'lidan bordi. U asarning kirish qismida tong otishining go'zal manzarasini chizadi, beshinchi nomani esa an'anaga yangicha yondashuv yo'li bilan bahor, yoz tavsifiga bag'ishlaydi. Shoir asarda ma'shuqa suratni chizish, uning xarakterini – xususiyatini yoritish, ruhiy kayfiyatlarini, alam – iztiroblarini kengroq yoritish uchun xilma-xil badiiy vositalardan, badiiy til rang – barangligidan unumli foydalanadi. Natijada "Latofatnoma" yangi, original asar sifatida maydonga kelib, "nomachilik"ka munosib hissa bo'lib qo'shiladi. Shoir o'z asarini yakunlar ekan, ustoz Xorazmiyga ma'nan murojaat qilib, uning tahsiniga loyiq asar yarata olganligini mamnuniyat bilan ta'kidlaydi.

Xo'jandiy so'zlari Xorazmiy miskin,

Eshitsa yo'lli deb qilgaydi tahsin.

Xullas, o'zbek adabiyotida yaratilgan "Muhabbatnoma" va "Latofatnoma" asarlari o'sha davr badiiy ijodining original namunalari sifati maydonga keldilar,

an'analarni boyitib bordilar. "Latofatnoma" asari o'zbek adabiyoti tarixida Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asaridan keyin janr taraqqiyotida ikkinchi bir muhim qadam bo'ldi.

Xo'jandiyning "Latofatnoma" asari XV asrning birinch yarmidan o'zbek nomachiligining ajoyib namunasi. "Latofatnoma"dagi asosiy g'oyaviy masala "Muhabbatnoma"dagi kabi hayotga, hayot go'zalligiga, insonga bo'lgan samimiy muhabbatni qo'llash va uni targ'ib qilishdir. Shuning uchun ham bu asarda inson go'zalligining xilma-xil xususiyatlari ma'shuqa obrazi, uning ta'rif va tavsifi orqali berilgan. Chunki nomalarda yetakchi o'rinni hamisha vasf egallaydi. Shoir talqinicha ma'shuqa tengi yo'q go'zal, pari-hurlardan ham ko'rkli, go'zallar sultoni, zulfining shabadasi jonga rohat, yuzi kunduz sochi tun, labi la'li badaxshon, tishlari dur, isirgasining donasi mushtariy yulduzga o'xshaydi.

Uning husnidan oy xira; quyosh xijil, zulfi makkor hinduga, fatton ko'zlari kashmir jodusiga monand. Agar uning yuzini ko'rsa gul ochiladi, tor og'zini ko'rsa gul g'unchadek yumiladi.

Uning qoshlari bayram oyi, qaddi sarv:

Ayo sardaftari xuboni olam,

Qamug' mulki jahon sizga musallam,

Parilar shohisan husning ziyoda,

Ruhing ko'rsa bo'lur shohlar piyoda.

Qaro zulfing ajab hinduyi tasvir

Erur fatton ko'zing joduyu kashmir

Yuzing kunduz bikin, zulfing shabi tor

Soching ichinda pinhon mushki totor,

Labing lali Badaxshon, tishlaring dur,

Sadaf og'zin qurutqon tishlaringdur.

Ma'shuqa o'zining bunday go'zalligi bilan har kinmi o'ziga shaydo qiladi, oshiqlar ko'nglini band etadi, uning inon -ixtiyorini oladi. Shoir insonning bunday go'zal ko'rinishni yaratuvchi xoliqning yuksak san'atkorligi natijasi ekanligi deb biladi.

Yuzungda ko'rsa bo'lur suni xoliq,
Netak bo'lmay muningdek yuzga oshiq
Shu o'rinda shoirning tasavvufga munosabati haqida gapirish mumkin bo'ladi.

Xo'jandiyning tasavvufga munosabati Xorazmiyning qarashlari bilan uyg'undir.
Adabiyotshunos Y. Isoqov Xorazmiyning tasavvufga munosabati haqida fikr yuritgan uning "Muhabbatnoma"sidagi quyidagi misralarga diqqatni tortadi.

Xayolat to sahar bo man hame guft,
Shabe alhaq, chi xush ravshan hame
Qadamlar meh, ki dar ishq i majozi.
Ba maqsude rasi, gar pokbozi.

Mazmuni:

Sening hayoling saharga qadar menga shundan deydi:
Haqiqatan kechasi qanday chiroyli va ravshan aytdi:
Majoziy ishqqa qadam qo'y, chunki sen agar
Sadoqatli pok bo'lsang, bu yo'lda maqsadingga yetasan.

Xo'jandiy o'zining talqinlarida shu yo'nalishni davom ettiradi. Majoziy ishqning ta'rifiga keng parvoz beradi.

Quyidagi misralarda ham ma'no ifoda etilgan:

Gunoh bolsa seni sevmaklik, ey yor
Jahonda bo'lmagay mentek gunohkor

Asardagi to'rtinchi nomada lirik qahramon ma'shuqa xarakteridagi bevafoqlik xususiyatlarini birma-bir to'kib solishga azm qiladi. Ma'shuqa obrazida talqin etilgan nomehribonlik, bevafoqlik xususiyatlari, berahrlik va boshqa xislatlarni tasvirlari vositasida muallif o'zi yashab turgan zamondagi feodal-zodagonlar bilan oddiy mehnatkash xalq o'rtasidagi munosabatlar masalasiga ishora qilganday bo'ladi, go'yo ma'shuqa bunday fe'l – atvorni teskari aylanuvchi zamondan o'rgangan.

Unutting bir yoli ahdu vafoni,
Falakdinmi saboq olding jafoni
Seningdek ko'rmadim turf nigore

Erursan bevafoqlikta dinore.

Lirik qahramon ma'shuqaga bunday salbiy illatlardan holi bo'lishini, bu besh kunlik dunyoni g'animan bilib unda, xushchaqchaq o'tkazishni, oshiqqa mehribon bo'lishni, hayotni behuda o'tkazib keyin pushaymon bo'lishlikni maslahat beradi.

Tilar bolsang jahon ichro amorat

Faqirlar konglini qilgil imorat

Zamona bevafoqdur take qilma,

Bu kungi yaxshi ishni tongga qoyma.

Muallifning yuqoridagi kabi misralarda o'zining taraqqiyparvar g'oyalarni aks ettirdi. "Latofatnoma"da oshiq obrazi Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asariga nisbatan bir qadar kengroq ma'noda yoritilgan. Oshiq o'zining ma'shuqaga, umuman, sevgiga bo'lgan munosabatlari, ishq yo'lidagi intilishlari, hayotga muhabbati bilan namoyon bo'ladi. Ma'shuqaning beqiyos husn-jamoliga shaydo bo'lgan oshiq uni but qalbi bilan sevadi, o'zini ma'shuqasiz tasavvur qilolmaydi. Biroq muhabbat ishi, ishq ishi osonlikcha muyassar bo'lmaydi. Buni oshiq yaxshi tushunadi, ishq yo'lidagi g'ovlarni yengib o'tish, sabr-toqat va chidam bilan sevgi sinovlariga bardosh berish lozim.

Visoling ganji emgaksiz bo'lunmas

Tikansiz guliston hargiz bo'lmas

Chechak sevgan jafoyi xor tortar,

Raqib javrin raqib nochor tortar

Oshiq ma'shuqa visoliga yetishga intiladi, uning bilan suhbat qurishga oshiqadi. Visol onlarini intizorlik bilan kutadi. Lekin ayriliq ularni bir – birlaridan ayiradi. Oltinchi noma oshiqning yor bevafoqligi, chekkan alam – iztiroblarining chuqur badiiy talqindan iborat. Oshiq ma'shuqani bevafoqlik qilmaslikka odamiylikni qo'ldan bermaslikka, vafo va sadoqatda mumtoz bo'lishni, oshiqlarni unutmaslikka husnda shoh bo'lsa ham gadolarning holidan xabar olishga da'vat etadi. Ayriliq o'tida o'ta o'rtangan oshiq olimga rozi bo'lish darajasiga yetadi va sabr kosasi to'lib faryod etadi.

2.02. "Latofatnoma"da ona tabiat gozalliklarining ma'shuqa timsolidagi ifodasi.

Xijil xurshidi tobon oy yuzingdin,
Yotur maxmur olib nargiz ko'zungdin.
Shaker la'li labing boli chin ore,
Chamanning sarvi qadding chinore

Oshiq oz ma'shuqasining ishqida kuyib, kul bo'lib bitgan ushbu baytlarda, oshiq ma'shuqaning husnu jamolini tengsiz darajaga olib chiqadi, yor shunchalik go'zal, xuddi paridek, oshiq qizni sevib qolganidan mamnun va bundan to'lqinlanib otashin baytlarni bitadi. Oshiq aytiki, yorning yuzi shunchalar go'zal va chiroyliki, uning tengi yor yuzidan topilmaydi ayni paytda hattoki, osmondagi oy ham uning go'zalligini ko'rib, o'zinging yor yuzidan xunukligini bilib uyalib xijolat bo'lib qoladi. Hattoki, dunyodagi eng chiroyli gul hisoblanadigan nargiz ham yorning ko'zini ko'rgandan keyin mashhur o'lib yotganligini ulug' bir mamnuniyat bilan ta'kidlaydi. Yor shunchalik go'zalligi bilan bir paytda uning so'zlari ham nihoyatda yoqimli va ma'shuqa bilan so'zlashgan odam undan juda mamnun bo'ladi, unga bog'lanib o'rganib qoladi. "Latofatnoma"da uchraydigan yana bir go'zal o'xshatish bu romanning sarvar hisoblangan chinor ham to'g'rilikni, magrurlikni ma'shuqaning qaddi-qomatidan andoza olganini aytib o'tadi.

Xo'jandiy o'z ijodida ona tabiat go'zalligini ma'shuqa timsolida shunchalik go'zal ifodalaydiki, bunchalik ko'p va xo'p o'xshatishni va go'zallikni boshqa shoirlar ijodida uchratish juda mushkul. Xo'jandiy "Latofatnoma"si tabiat tasviri bilan bog'liq o'xshatishlar yuksak pog'onalarga ko'tarilgani yaqqol sezilib turadi.

Jamoling ko'rib gul guncha bo'lg'ay
Tor og'zingtek magar gulg'uncha bo'lg'ay
Kular bo'lsang qish ichra yoz ochilur
Sochingdin anbari soro sochilur

Xo'jandiyning ta'kidlashicha, yor tabiat go'zalliklaridan ham go'zal buni quyidagi baytlari orqali ham ochiqdan-ochiq ifodalaydi. Uning aytishicha: o'zini tabiatning tanho sanami deb hisoblovchi gul ham ma'shuqaning jamolini

ko'rgandan keyin uyalib g'uncha holiga tushib qoladi va go'zallikda o'z o'rnini ma'shuqaga bo'shatib beradi deb juda chiroyli tashbeh san'atidan foydalanadi. *Xuddi shu o'rinda shoir yana bir go'zal o'xshatish orqali ma'shuqaning og'zini gulg'unchaga o'xshatib, husni ta'lil san'atidan g'oyatda ajoyib tarzda foydalana olganini namoyon etadi.* Yor shunchalik go'zalki, - deydi oshiq, - hattoki, tabiat ham uning izmida yurganga o'xshaydi. Buning quyidagi misralardan ham sezib olish mumkn. Hattoki, tabiatning fasllari ham uning husni jamoliga oshiq bo'lganini yashirmay tan oladi. Hattoki, qishning qoq o'rtasida ham ma'shuqa chin dildan yorga ehtirom bilan kulsa, tabiatda keskin o'zgarish sodir bo'lib qahrmon qish yozga aylanib qoladi. Bu bilan shoir tashxis san'atidan juda mohirona foydalanadi. Qishning o'rtasida ma'shuqaning kulgisi tufayli yozning kirib kelishidek o'xshatish o'zbek adabiyoti tarixida erishilgan eng yutuqli o'xshatishlardan desak yanglishmagan bo'lardik.

Ayo, qaddi sanubar, chehrasi gul

Xati rayhon mengizlik zulfi sunbul

Aliftek tog'ri boyliq qoshlarinun

Jahon Laylilari husnungga Majnun

Juda yuqori saviyada yozilgan quyidagi ishqiy baytlarda shoir o'zining buyuk qalb sohibi uning yuragi esa tuganmas ijod maskani ekanligini yana bir ta'kidlab o'tadi va ayni damda buni namoyon ham qila oldi. Shoirning aytishiga qaraganda, ma'shuqaning qaddi shuncha lik go'zal va to'g'riligidan uning boyu bastini sanubarga, boyining go'zalligiga hamohang yorning yuzi ham insonni hayratga soladigan darajada go'zal shuning uchun shoir o'z ijodiy ishida yorning go'zalligini, yuzining chiroyini esa eng go'zal gullarga qiyoslaydi. Shoir baytni davom ettirar ekan yorning go'zalligini bir-bir sanab, uning tengini topib qovushtirib boraveradi. Oshiqning aytishicha, yorning xati rayhonga, zulfi xuddiki tovlanib turgan sunbulga o'xshatish orqali buyuk bir san'at asariga teng bayt yaratdi. Shoir misralarni davom ettirar ekan, yorning bo'yini shunchalik to'g'ri va tekis ekanligini isbotlash uchun uning bo'yini Alifga o'xshatadi. Qoshlarini esa nun harfidek chizib bezab qo'yilgan darajada bejirim va takrorlanmas ekanligini

ta'kidlab o'tadi. Bu yorning shunchalik go'zalligini ko'rgan dunyodagi boshqa go'zallar esa ma'shuqaning husnu jamoliga oshiq bo'ladi va bunday go'zallikka Majnun Layliga qanchalik ishtiyoq bilan intilgan bo'lsa, go'zallar ham ma'shuqadek go'zal bo'lish uchun chin dildan unga intiladi va ayni damda barcha go'zallar tan oladiki, oshiqning ma'shuqasi hamma go'zallardan ham go'zaldir.

Xo'jandiy bu o'rinda go'zal she'r yozish bilan bir qatorda o'zining adabiyot bilimdoni ekanligini ham namoyon etib o'tgan. Ya'ni, shoir shu tort qatorda, tashxis, tanosub, kitobat, irsoli masal kabi bir qator she'riy san'atlardan ustalik bilan foydalana olganligi tahsinga sazovor.

Qachon kelgaysen ey sarvi ravonim,

Fido bolsun sanga jonu-jahonim.

Qachon yuing korib kozim yorigay,

Isolingdin kozim yoshi qurugay.

O'ta yuksak darajada yozilgan, ohangdor baytlar "Latofatnoma" asarining eng yuqoriga ko'tarilgan cho'qqilaridn hisoblanadi. Bu baytda shoir o'z ichki kechinmalarini yuqori saviyada bayon qiladi va yorning jafokorligidan yuragi og'rinadi o'zining yoridan marhamat kutadi. Bechora oshiq bor vujudi, hishayajonlari bilan ma'shuqani sog'ingan, sog'inch yorning yurak-bag'rini ezib tashlagan, kunlari tunlari faqat yorni o'ylaydi u haqida xayollar suradi.

Ma'shuqaga sarvi ravonim deb tinmay oh uradi, uni o'z yoniga chorlaydi, elishini intizor kutadi. Oshiq ma'shuqa vasliga yetish uchun hamma narsaga tayyor hattoki, oshiq ma'shuqa uchun o'zini fido qilishga ham tayyor. Unga faqat ma'shuqa kerak, boshqa hech narsa emas.

Oshiq umrini jonu tanini shu ma'shuqaga baxshida qilgan, butun umr u faqat ma'shuqa uchungina yashaydi. Oshiq yorini shunchalar sog'inganki, uni kutib kozlari chiryon bo'ib ketgan. Tunu – kun uning yo'liga qarab ma'yus, jim kutib o'tiradi. Yorning yuzini ko'rish oshiqning yagona istagi. Qachon ma'shuqani ko'rsa, shundagina oshiqning ko'zlarida quvonch porlaydi. Uning ko'zlari ma'shuqaning yo'llariga intizor bu dunyoni uning tashvishlarini butunlay unutgan. Oshiqning umrida ishq-sevgi birinchi o'ringa chiqanligi yaqqol ko'rinib turibdi.

Oshiq o‘z ma’shuqasini kutib shunchalar iztirob chekkanki, buni ta’riflash uchun so‘zlar ishlatishning foydasi yo‘q. Qattiq qayg‘urgan oshiqning ko‘zlari yig‘lab qiynalganidan ko‘zlaridagi yosh marjondek yerga to‘kilib tamoman tugab bo‘lgan. Oshiq mana shunday qiyin bir ahvolda qalb ardog‘ini, jafokotini bir lahza bo‘lsin unutmay tinmay kutib turibdi. Ishonadiki, ma’shuqa qachondir uning oldiga kelib dardlarini eshitadi.

Rahimsiz bevafo nomehribonim,
Firoqing o‘tida o‘rtandi jonim
Unutding bir yo‘la ahdi vafoni,
Falakdinmu saboq olding jafoni.

Oshiq o‘z ichki kechinmalarini yolg‘onsiz, chin yurakdan ifoda etgan bu baytda ma’shuqaning jabru zulmlaridan charchaganini bayon qiladi. Oshiq ma’shuqaga qanchalik mehr va vafo bersa, ma’shuqa unga shunchalik azob berayotganligidan nolib, og‘rinib gapiradi. Oshiq ma’shuqaga muhtoj, uning visoli oshiqning kamoli bo‘lishini takror va takror aytib oh uradi. Oshiqning yolg‘izgina ilinji bor. Bu ma’shuqaning visoli, ammo uning xoxishiga qarshi o‘laroq oshiqqa ayni damda visol emas, firoq nasib qilgan. Oshiq falakning bu taqdiridan rozi emas. Oshiq joni firoq o‘tida o‘rtanayotganini, yorsi kunlarida mamun qolmaganini aytib oh uradi. Biroq u shunday vaziyatd ham ma’shuqadan kechmaydi, unga tomon bot-bot talpinaveradi.

Oshiq qachonlardir ma’shuqa o‘zini sevganini qolaversa, o‘rtada ahdu-paymon ham bo‘lganini kuchli bir istirob bilan eslaydi. Ma’shuqaning bunday o‘zini tutishi oshiqni shunday o‘ylashga majbur qiladi. Oshiq ma’shuqani bevafo qilmaski, o‘zini oshiq uchun baxshida qilishga da’vat etadi, buning uchun qoldan kelgancha harakat qiladi. Oshiqni ma’shuqaning bu darajada o‘zgarib ketgani tashvishga soladi. Bu o‘rinda oshiq o‘zi bilmagan holda falakni ham ayblab ketadi. Ya’ni aytadiki, bularning barchasiga falak aybdor deb biladi. Chunki ma’shuqa bu darajada bevafo bo‘lib ketishini hech kutmagan edi. Oshiq ma’shuqani bir xil muomalada bolishni, turfa nigor bo‘lmaslikni qayta va qayta takrorlaydi. Oshiq ma’shuqaga oldiga qaytishni va o‘ziga nisbatan mehribon bo‘lishini tayinlaydi.

Sahar gulgunchakim olamga kuldi,
Tor og'zingni ko'rib gul guncha bo'ldi.
Ko'zuni ko'rsa nargiz xira solg'ay.
Bo'lub osuk boshini yerga solg'ay.

Bu baytda ham Xo'jandiy tabiat tasviriga juda katta ahamiyat bergan. Intitoq, tashxis, husni ta'lil she'riy san'atlarini baytda judo mohirlik va nozik didlik bilan qo'llay olgan. Shoir aytadi tabiatning qonun-qoidalariga bo'ysungan gul saharda o'zining muattar hidlarini olashga taratib kuldi va dunyodagi eng chiroyli manzarani hosil qildi, deydi. Biroq yor bog' sayriga chiqqandan keyin, uning go'zalligi, uning jozibasini ko'rgan gul bir lahzada avvalgi olamiga qaytib yana g'unchaga aylanib qoladi. Bunday shirin so'zli go'zal ma'shuqa ayni shu damda gul bilan husn bellashuvida g'olib bo'lib oshiqning muhabbatini yana bir bor oshirib jumbushga soladi.

Ma'shuqaning go'zallik jihatlarini sanashni davom etgan oshiq xayolda ma'shuqaning ko'zlarini eslaydi. Agar ma'shuqa bog' sayliga chiqsa va nargiz gulining yonidan bir bora o'tsa, ma'shuqaning ko'zini ko'rgan nargiz uyalib boshini yerga qaratib turadi. Shoir ona tabiat go'zalliklarini va ma'shuqaning go'zalligini bir – biri bilan solishtirib juda mukammal, badiiy, estetik jihatdan tarbiyaviy bir asar yaratgan.

Ko'zungni Zuhra ko'rsa xira qolg'ay,
Tolin oy sizni ko'rsa yarim bo'lg'ay.
Meni ishqingda asru zor qilma
Faqirlar ko'ngluni ozor qilma.

Mana shu o'ringa kelganda Xo'jandiy "Latofatnoma"ni samoviyashtiradi. Yanikim, ma'shuqaning go'zalligini yordan endi osmonu falakka olib chiqadi va ma'shuqaning go'zalligini yulduzlaru, oyga tenglashtirib ajoyib biriktiruvchi misollar keltiradi. Bilamizki, ona sayyoramizda eng porloq yulduz bu shubhasiz Zuhra yulduzidir. Zuhra yulduz ming yillar o'zining chiroyliligi bilan ajralib turadi. Zuhra yulduzdan insonlar dengizga cho'lu-biyobonlarga yo'nalishni aniqlab olish uchun ham foydalanganlar. Mana shunday jonli taixga ega bolgan

Zuhra yulduz bu safar yor go‘zalligining oldida mag‘lub bo‘ladi. Bu o‘rinda oshiq ma’shuqani Zuhra yulduzlardan ham go‘zal deb aytadi. Bu ma’shuqa husnu jamolini g‘oyatda go‘zalligidan dalolat berib turadi. Bilamizki, tabiatda mavjud bo‘lgan barcha narsalarning ichida oy o‘zining hammadan chiroyliligi bilan ming yillar davomida ajralib turadi. Ayniqsa, oy to‘lin bo‘lganda o‘zining haqiqiy go‘zalligini bekamu ko‘st namoyon qiladi. Ammo yerda undanda go‘zal bir qiz yashaydi bu oshiqning ma’shuqasi, u shunchalik go‘zalki go‘zallikda hatto go‘zal oyni ham uyaltirib qo‘yadi va oy uyalib to‘lin oy yarim holiga kelib qoladi bu esa mubolag‘aning g‘uluv turiga xos bo‘lib, shoir juda go‘zal tasviriy vositalar orqali ifodalay olgan. Misalarni davom ettirarkan, oshiq yorni sevib qolganini aytadi va ma’shuqaga adolatli bo‘lishni ta’kidlaydi. Ya’ni uning sevgisini qabul qilishini har doim o‘zi bilan birga bo‘lishini aytadi. Men deydi oshiq ishqingda bir faqir bo‘lib qoldim, sani shunchalik sevdim, endi sen ham menga bevafoqlik qilma deb zorlanadi. Oshiq ma’shuqadan ajralib qolishdan juda qo‘rqadi. Ma’shuqaning vasliga yetish uchun tinmay intiladi. Oshiqning bu jafakor dunyoda yolg‘iz kutayotgani, yolg‘iz ilinji bor bu ma’shuqa vaslidir: ma’shuqadan so‘raydiki umringni menga baxshida qil bo‘lmasa faqir ko‘nglim bu judolikdan tamoman ado bo‘ladi, deydi.

Muhabba jomini ul oshiq ichgay,

Ki avval ishq uchun jonini kechday.

Sening ishqing meni devona qildi,

Muhabbat jomiga paymona qildi.

Oshiq yuksak bir iftixor bilan aytgan baytlarda shuki ta’kidlaydiki, ishq, sevgi, muhabbat har kimga ham nasib qilavermaydi. Buni chin dildan sevgan oshiqlargina biladi. Ishq sharobidan ichgan oshiq o‘zini butunlay yor uchun bag‘ishlagan dilida ham, tilida ham faqat yor deydi. Bulardan boshqa hammasi bekor. Ishq sharobini ichgan oshiq bu dunyoda faqat ma’shuqa uchungina yashaydi. Sevgi sharobini ichgan oshiq yor uchun ozida shunday bir kuch topa oladiki, hattoki, ma’shuqa uchun o‘z jonidan ham kechadi. Oshiqqa bu narsa

umuman qo‘rqinchli emas, balki ayni paytda muhabbat yo‘lida o‘zini qurbon qilish oshiqqa huzur halovat bag‘ishlaydi. Oshiqning ko‘ziga sevgi oldida jon hech narsa bo‘lib ko‘rinadi. Oshiq ma’shuqani shunchalar sevganki, uning aqlu-hushini butunlay o‘g‘irlab o‘zini devonasifat bir holga solib qo‘yadi. Xuddi mana shu sevgi oshiqni muhabbat jomiga paymona qilganini aytib o‘tadi. Bu baytlar orqali Xo‘jandiy oshiqni yuksak qiladi. Bu misralarda oshiqning chinakkam ichki kechinmalari, orzulari yaxlit birlik qilib juda go‘zal ochib bergan. Hayot sevgidan iborat, agar inson yuragida o‘zgina bo‘lsa ham muhabbat bo‘lmasa demak, u o‘lik inson hisoblanadi. Haqiqiy oshiq har bir ishiga muhabbat bilan yondashadi, bunday ulug‘martaba har kimga ham nasib qilmasligining o‘zigina oshiqni yuksaklarga ko‘taradi. Bu misralarning oxirida ulug‘ bir hikmat bor.

Ayo ahdi vafosiz dilrabo yor,

Nigori sarv qaddi lolaruxsor.

Aliftek togri qaddim yo g‘amingda

Ko‘zum chashmasi daryo g‘amingda

Oshiq ma’shuqaga norozilik kayfiyati bilan murojaat qilyapti.

Ma’shuqani vafosizlikda ayblaydi, o‘ziga nisbatan sodiq bo‘lishga chorlaydi. Oshiq ma’shuqani qanchalik sevsa, ma’shuqa ham oshiqni shunchalik sevishga chorlaydi. Uning go‘zalligi oldida hamma unga tan beradi. Xo‘jandiy bu yerda tazod san’atini ham ishlatib aytadiki, yor qanchalik go‘zallikda, husnda tengsiz bo‘lsa, bevafoqlik bobida ham unga yetadigani yo‘q deb, aytib o‘tadi. Yor shunchalik chiroyli, uning nigori tabiatimizdagi eng chiroyli sarv daraxtidek daraxt bilan yorni bunday chiroyli o‘xshatish uchun avvalam bor haqiqiy shoir bo‘lish kerak. Qaddini esa lolaruxsor deb ta’rif va tavsif qiladi. Shoir oshiqni ham go‘zallikda tengsizlar qatorida keltiradi. Oshiqning ham qaddi alifdek to‘g‘ri ekanligini aytib o‘tadi. Bu yerda ham shoir oshiqning qaddi qomatini tasvirlashda tazod san’atidan foydalanadi. Masalan: oshiqning qaddi alifdek to‘g‘ri edi, biroq ishq-muhabbatga shaydo bo‘lib qoladi. Yoning visoli uchun tinmay iztirob chekadi, natijada alifdek qomadi bunday og‘ir g‘ammi ko‘tara olmay xuddiki yoyday bo‘lib egilib qoladi. Ammo oshiqning yuragi endi hech narsaga

bo'ysunmaydi, hech narsaga parvo qilmaydi, ma'shuqa uchun yashaydi, xolos. Bu misrada tazod san'ati bilan bir qatorda tashbeh she'riy san'atining ham nodir namunasini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Oshiq shunchalik ma'shuqaning g'amida kuyyaptiki, ko'z yosh qilib yig'lash darajasiga borib qolgan. Yig'laganda ham shunday yurakdan oh urib yiglayaptiki, ko'z yoshlari daryo bo'lib oqyapti. Bu yerda Xo'jandiy mubolag'aning g'uluv turini shunday ishlatganki, buni kitobxon chin qalbdan his qila oladi.

Manda sendin jafo ayni vafodur

Jafo o'z bo'lsa oshiqqa jafodur.

Nigore jaf haddin oshurma,

Firoq o'ti bilan bag'rim pishurma.

Oshiq shunday deydi, ma'shuqani jaolari unga ozor emas, balki juda yoqimli deb biladi. Oshiqqa tinch va osuda yashagandan ko'ra jizganak bo'lish ma'qulroqdir. Oshiqning tilagi agar ma'shuqa jafokor bo'lsa ham oshiqning yonida tursa bo'ldi, shuning o'zi oshiqqa qilingan vafoga teng bo'ladi. Yana oshiq sevgining qudratidan kelib chiqib aytadiki, jafo u uchun umuman muammo emas. Qachonki, ma'shuqa oshiqning hayotidan kelib unga jafo qilishni bas qilsa, mana bunga endi oshiq chiday olmaydi. Lekin shunda ham oshiq ma'shuqaga aytib o'tadiki bir umr jafo qilma bu jafolarning oxiri qachondir visolga yetishini istaydi.

Firoq o'ti bilan bagrim pishodir deb aytilgan misrada oshiq jafo qanchalik ko'p bo'lsa uning sevgisi shunchalik sinaladi, imtihon bo'ladi. Firoq ma'shuqaga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi uni bundanda kuchliroq sevishga asos bo'lib xizmat qiladi. Firoq o'ti ayni damda oshiqning jon-jonidan o'tib ketgan, endi unga visol lazzati kerak bo'lyapti.

Falak boshi bilan evrulsa ming yil,

Seningtek qilmagay dunyoda hosil.

Quyosh yuzing ko'rib yerga yiqildi,

Adoging tufrogini surma qildi.

Juda samimiy ohangda aytilgan baytlarda shunday fikrlar ilgari suriladi. Agar deydi oshiq falak ming yil urinsa ham dunyoda endi ma'shuqaning husni-jamoliga

teng keladigan boshqa bir qizni yarata olmaydi. Bu bilan oshiq aytdiki, ma'shuqa hammadan ko'ra chiroyli, uning tengi bu dunyoda yo'q. Oshiqning fikricha, dunyoda hali qanchadan-qancha go'zallar dunyoga keladi, lekin ularning hech biri ma'shuqaday bo'lolmaydi.

Yorning chehrasidan nur yog'ilib turganini oshiq faxrlanib aytadi. Ma'shuqaning husnini ko'rgan oyku oy, balki quyosh ham falakning tog'idan qulab tushadi. Bu yerda mubolag'aga asosiy e'tibor berilyapti, undan tashqari yana tashbeh ham qo'llanilgan. Oy ham yetolmaydigan go'zalga oshiq yetolmaydimi – yoqmi buni o'ylab unig yurak bag'ri o'rtanadi. Oshiq butunlay inon ixtiyorini ma'shuqaga topshirgani sezilib turadi.

3.01. "Dahnoma" va "Taashshuqnoma"da yor va oshiq timsoli.

"Taashshuqnoma" asarida muallif o'z asrdoshlari bo'lgan so'z san'atkorlari kabi o'sha zamon uchun eng muhim hayotiy bo'lgan axloqiy fazilatlarni targ'ib etadi, zamona illatlarini qoralaydi. Shoir asarda bu misralarni ma'shuqa, oshiq, raqib obrazlari vositasida ifoda etgan.

Shoir tasviricha, ma'shuqa va insoniylik, go'zallik timsoli. Uning yuzi oydin ziyoda, ko'zi hammani shaydo qiladi, qora zulfi ko'ngilga g'avg'o soladi.

Ayo zebo sanamlar ko'krakbo'yi
Qamuq shohlar gadoyingning gadoyi.
Latofat mukining sohib kamoli,
Topar nuqson yuzingdin shoh kamoli

(275-bet)

Ma'shuqa sarv bo'ylik, lola yuzlik, ko'zlari jayron. Shoir asarda ma'shuqa obrazini tavsif etar ekan, bunday go'zallik huru parilarda ham yo'q ekanligi, bunday go'zallik mana shu real hayotda real insonda ekanligini ko'rsatib, bunday go'zallik oldida huru parilar hamlol ekanligigina alohida uqtiriladi. Bunday go'zallikka barcha insonlar maftun bo'lishlari, uni sevishlari, e'zozlashlari kerak, u shunday e'zozga loyiqdir. Shoir asarda ma'shuqaning insonni maftun etuvchi juda ko'p va xilma-xil ko'rinishlari va sifatlarini zo'r san'atkorlik bilan ta'rif va tavsif etadi. Ma'shuqaning husnu jamolda quyoshdan, zavq-shavq bilan kuylaydi.

Quyosh yuzing ko'rub, ey mohi tobon,
Xijolat topdiku bo'ldi yaroqon.
Qachonki la'alingiz bolsa shakarxand,
Nabot irining qoshida su bo'lur qand.

(283-bet)

Bunday go'zallikbi Xudoning o'zi yaratgan.

Yuzingdir ey pari, firdavsi a'lo

Seni zebo yaratgan Haq taolo

(287-bet)

Inson hayotni xushchaqchaq o'tkazish, hayot go'zalliklaridan bahramand bo'lishi lozim. Biroq ma'shuqa mana shunday tengi yo'q oshiqqa, unga maftun bo'lgan, butun borlig'idan kechib unga ko'ngil qo'ygan insonga iltifot qilmaydi, unga bevafoqlik qilmaydi, jaf o'tini yoqib hijronda kutadi. Lirik qahramon ma'shuqaning bu illatidan xalos bo'lishini orzu qiladi, umrni xushnudlik bilan o'tkazishga da'vat qiladi.

Necha javru jaf qilgaysan, ey yor,
Bilursankim qulungdurkim vafodor

(275-bet)

Umuman, Sayid Ahmad ma'shuqa obrazini o'z salaflari va zamondoshlari kabi hayotiy go'zallikning ramziy sifatida har tomonlama, go'zal, jozibali va maftunkor qiyofada talqin etishga muyassar bo'lgan. Ayni zamonda illatlarini, salbiy xususiyatlarini ma'shuqa qiyofasida aks ettirishga harakat qilgan.

Sayid Ahmadning "Taashshuqnoma" asarida oshiqning ma'shuqaga yozgan maktublarida ma'shuqa obrazi bilan birga, shu go'zal ma'shuqaga ko'ngil bergan, uning husnu jamolini ta'rif va tavsif etgan, uning visoliga yetishga intilgan, bevafo ma'shuqaning jabru jafosi tufayli hijron alam – izzatlariga giriftor bo'lgan, ammo hayotda umidsizlikka tushgan oshiq obrazi ham gavdalanadi. Oshiq yigit go'zal ma'shuqani jon – dili bilan sevadi, unga qalban e'tiqod qo'yadi. Hayotining mazmuni deb ma'shuqani biladi, uning visoliga intiladi, yoridan iltifot kutadi.

Manga sensiz kerakmas tanda jonim,

Chu sansan munisu jonu jahonim

Yoki:

Manga sensiz kerakmas bu tiriklik,

Kishi istarmu o'ziga hech yiriklik.

Ko'ngul mehringdin o'zgani yovutmas.

Yiroq bo'ldi debon sizni unutmas,

Tilarman tunu kun subhi visoling,

Bi hamdillohki, kuzdadur hayoling

(-bet)

Oshiq vafo va sadoqat timsoli. Ma'shuqa uni hijronga tashlasa ham u ishqiga sodiq bo'lib qoladi, ko'ngilga o'zganing muhabbatini yaqinlashtirmaydi, ahddan qaytmaydi. Oshiq har qancha sabr toqatli bo'lsa ham ma'shuqadan ayriliq dardi uni ruhan eza boshlaydi uning qalbida shikoyat, hasrat – nadomat nidolari paydo qiladi. Yor jafosi zamona beqarorligi tufayli yuzaga kelgan qiyinchiliklar bilan qo'shilib uning g'amida – g'am, alamiga – alam qo'shadi.

Firoqing zulmidin mazlum bo'ldum,
Yiroqlik dardidin ma'lum bo'ldum

(285-bet)

Yoki:

Visoling davlati bo'lmas muyassar,
Firoqning zulmidin, ey voy, ey voy

(288-bet)

XI asr oxiri XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan so'z san'atkorlarni ifodalash timsolida oshiq, ma'shuqa obrazlari bilan bir qatorda raqib obrazi ham yaratilgan edi. Buni Otoy, Sakkokiy, Lutfiy, Gadoiy kabi shoirlarning lirik asarlarida ham ko'rish mumkin. Lekin shu davrdagi noma janridagi asarlardan faqat "Taashshuqnoma" asarida raqib obrazining ayrim ko'rinishlari yo'l-yo'lakay uchraydi.

Ma'lumki, raqib yomon niyatli shaxs, u oshiq va ma'shuqa orasida sovuqchilik soladi, ig'vo va bo'hton tarqatadi. Raqibning fitnalari tufayli oshiqning ma'shuqa oldidagi e'tibori pasayadi va nihoyat ma'shuqa dargohidan quviladi.

Tabugi neda chu yoqtu e'tiborim
Raqibing quvg'ay nochor bizni

(280-bet)

Raqibning tuhmatlari tufayli oshiq o'z ona yurtida tinch yashay olmaydi, darbadarlik, sargardonlikka mahkum etadi. Oshiq ma'shuqa visoliga yetishishga, g'ov bo'lgan raqibning ig'volari dastidan faryod qiladi:

Firoqing zulmidin dod istaram, dod
Raqibing dastidan faryod, faryod

(282-bet)

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, muallif raqib obrazi orqali insonlarning totuv munosabatlariga rahna soluvchi, ularning samimiy aloqalarni buzuvchi kuchlar timsolini gavdalandirishga muyassar bo‘lgan. Shuni aytish kerakki, raqib va uning xarakteri haqidagi fikrlar nomalarda emas, balki ularga ilova qilingan g‘azallarga ifodalanadi.

Shunday qilib, Sayid Ahmad o‘z asarida oshiq va ma’shuqa obrazlari talqinida o‘z salaflarining va zamondosh so‘z san’atkorlarining izidan boradi. Ma’shuqani esa vafo va sadoqat ramzi sifatida berib, ular o‘rtasidagi sevgi – muhabbat jarayonining romanchilik tasvirini chizadi. Ayni zamonda muallif o‘z asariga raqib obrazini kiritib oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi munosabatlar drammatizmni kuchaytirishga intildi.

Ilmiy ishimizning rejasiga muvofiq mavzuni ”Dahnoma”da yor va oshiq timsoli bilan davom ettiramiz.

”Dahnoma”da aytilishicha, bir yigit (qahramonning nomi aytilmagan) do‘stining uyidan mehmondorchilikdan qaytayotib yo‘l ustida go‘zal bir qizni uchratib qoladi. U qiz bilan uchrashmoqchi, suhbatlashmoqchi bo‘ladi. Lekin suhbat qovushmaydi. Yigit va qiz o‘z yo‘llariga ravona bo‘ladilar. Ammo yigit qizning sarvdek qaddi-qomatini, husnu jamolini eslab, muhabbat o‘tida qovrilib, tuni bilan uxlamay chiqadi, uning qalbida qizga nisbatan samimiy muhabbat tuyg‘ulari alanganadi. U o‘zining bu hislarini qizga yetkazish yo‘llarini axtaradi va ertalabki esgan tong shabadasi saboga murojaat qiladi.

Dedim: Ey munju yoru sabuk ruh,
Ki sendin toza bo‘ldi joni mahrir.
Borib bir-birda qilsang emdi tahrir.
Bu niyatni o‘zingga farz bilsang,
Senga har neki desam arz qilsang

(236-bet)

Sabo oshiqning iltimosini bajarish uchun yo‘lga otlanadi. U ma’shuqa manzilga yetib, odob va tavoze bilan oshiq nomasini tutqazadi. Oshiq o‘z

nomasida ma'shuqaning o'zini maftun etgan mubolag'aviy tasvirini ta'rif etib, ana shu go'zallikning maftuni bo'lib qolganligini bayon qiladi. U ma'shuqadan o'ziga rahm-shavqat qilishni, yomon ko'z bilan begonadek qaramaslikni iltijo qiladi.

Sen ul kunki nazaring mendin olma,

Bilib o'zingni bilmaslikka solma.

Meni o'tta solib, turma yiroqni,

Tomosha qilma yot eltek qiroqtin

(238-bet)

Oshiq o'z nomasini "Yuzingni bergay xud oxir oshnolik" deb umidbaxsh ruh bilan tugatadi. Amiriy noma oxirida ma'shuqa shaniga maqtoqlar bilan to'la g'azal bitadi va uni bir fard bilan tugallaydi.

Sabo orqali oshiqning nomasini olgan ma'shuqa oshiqona mazmunidan jahli chiqadi, g'azablanadi. U oshiqni muhabbatdan lof uruvchi, o'zini zo'rma-zo'raki oshiq qilib ko'rsatuvchi parishon fikrli devonalardan biri deb hisoblaydi. U istirob va itob bilan oshiq yigitga noma yozadi. Ma'shuqa o'z javob nomasida yigitni bu nomaqbul fikrdan qaytarishga da'vat etadi. Yigitga visol onlarining nasib etmasligini, shuning uchun bu xom xayolni boshidan chiqarib yuborishni kerakligini uqtiradi.

Bu yerda shoir "ishq boshqa havas boshqa" naqliga amal qilib, ma'shuqa tilidan sevgi murakkab olam ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi. Ma'shuqa ishq yo'lidagi qiyinchilik, iztirob va mashaqqatlarni birma-bir sanab, oshiqni bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi.

Fasih qilmogil o'zingga umdo,

Ki hargiz qilmadi sidi bu savdo.

Ko'zum g'avg'osidan bir go'sha tutqiz,

Hamul bir ko'rmading, ya'ni unutqin,

Yana zulfimga ham chulgashmagil hech,

Kim aning qissasidir "pech-daryopech"

Tuganmas dardu g'amdin bo'lmagil shod

(241-bet)

Albatta, bu soʻzlarning hammasi oshiq ishqining pokligini, uning muhabbatdagi sadoqatini sinab koʻrish, oshiqning ishq haqiqiymi yoki shunchaliki hoyu havasmi ekanligini aniqlash uchun ishq yoʻlida qoʻyilgan sinov lahzalari edi, xolos. Oshiq maʼshuqaning taʼnomuz nomasini oʻqir ekan, undagi nashtardek dilga botuvchi itob soʻzlardan xafa boʻlmaydi. Oshiq uchun eng muhimi, unga umid baxshida etadigan hol maʼshuqning javobnomasi boʻladi. Oshiq maʼshuqa nomasiga darhol javob yozishga kirishadi. U bu nomasida yana maʼshuqani taʼrif va tavsif etadi, uning shamshoddek qaddini, oʻlikka jon bagʻishlovchi labini, oshiqlar imoni boʻlgan koʻzini, loladek yuzini juda chiroyli iboralar, tazod, oʻxshatishlar va boshqa usullar bilan taʼriflab shunday goʻzallik boshqalarga ham ezgulik baxsh etishi, ”oshiq jarohati ustiga tuz sepmasligi kerakligini, jafoni haddan oshirish maʼshuqaga yarashmasligini uqtiradi, nomada oshiq oʻz jonini maʼshuqa yoʻliga tikkanligini, niyati yaxshi va eʼtiqodi mustahkam ekanligini taʼkidlaydi, oʻz nomasini umidvorlik tuygʻulari bilan yakunlaydi.

Oshiqning nomasini oʻqigan maʼshuqa oshiq ahvolini sezgirlik bilan his etadi, uning ishq pok, soʻzi rost ekanligini anglaydi. U endi oshiq dilini jarohatlashni, ishq oʻtida qovrilayotgan bandaga tuz sepishlikni oʻziga munosib koʻrmaydi va ”arodin yotlik hisobini olib, ochiq – yoruq javob yuborish”ga ahd qiladi. U oshiqqa noma yoʻllar ekan, avvalgi nomadagi gaplar uning sevgisini bir sinovdan oʻtkazish uchun atayin aytilganini taʼkidlaydi. Bu yerda shoir ”oltin oʻtda bilinadi, degan xalq maqolini keltirib, oshiqning haqiqiy oshiqligi ham sinovlarda aniqlanadi demoqchi boʻladi. Maʼshuqa oʻz nomasida oshiqning sevgisi Haq, soʻzi rost ekanligiga ishora qiladi.

Menga bildurdi emdi ittihoding,
Bor emish zulfima chin eʼtiqoding
Sango ul zam-zama bexost ermish,
Har oh angki qilding rost ermish.

(247-bet)

Maʼshuqaning bu nomasi oshiqni benihoyat xursand qiladi. Unda maʼshuqa visoliga yetishish ishtiyoqi ortadi. Oshiq sevinganidan xushxabar keltirgan saboga

minnatdorchilik bildiradi, uning qadami qutlug‘ ekanligin ta’kidlaydi. Oshiq tezda ma’shuqasiga javobnomasi yozadi va uni sabodan yuboradi.

Oshiq nomasini olgan ma’shuqa uni harfma-harf o‘qib chiqib, oshiqning ishq yo‘lida chekayotgan ichki kechinmalaridan iztirobga tushadi. Oshiqqa hamdardlik tuyg‘ulari paydo bo‘ladi. Bu muhabbat alangasi ma’shuqa qalbini ham asta-sekin egallay boshlaydi. Lekin ma’shuqa oshiq yigitni yana bir sinovdan o‘tkazishga qaror qiladi. Uning ishq so‘f va pok ekanligini tekshirib ko‘rishga qaror qiladi va o‘z qarorini beradi.

Ki har nargizga ul ko‘z solguvchidir.

Ko‘rub har sarfin borur o‘zidin,

Yurur juyonu su turmas ko‘zidin

(253-bet)

Ma’shuqa bu satrlarda ”tili boshqa, dili boshqa” oshiqlarni har kuni yangi – yangi ma’shuqaga shoshadiganlarni nazarda tutadi va ularni qoralaydi. U o‘z oshig‘idan haqiqiy sadoqat va vafodorlikni, ishqda sobit qadamlikni va poklikni talab qiladi.

Tilar bo‘lsang yuzumning lolazorin,

Unutkim o‘zga gulning xor-xorin,

Ko‘rub har gulni el yanglig‘ erishma,

Sovurmagil ko‘ngil ro‘zg‘orin.

Ma’shuqaning nomasini o‘qigan oshiq bir tomondan ma’shuqaning oshiq haqidagi samimiy, mehribonlik bilan tola satrlaridan quvonadi, ikkinchi tomondan esa ma’shuqa qalbida gumonsirash paydo bo‘lganidan o‘kinadi.

Bu gumon va andishalarning hech qanday asosi yo‘q ekanligini, u faqt mana shu yerni chin dildan sevganini, shu yerning dardini surmaga, tishini durga, yuzini gulga almashmastirlikni ta’kidlaydi.

Qasam tarzida quyidagi so‘zlarni aytadi:

Qarodin chiqmaydi zulfindin o‘zga,

Agar bir qil uchi bo‘lsa panohim.

Qutilma qayg‘udin gar furqatingda,

G'amingdin o'zga bo'lsa uzr xoxim
Tuzalmasun yuzimdin qibla siyna,
Gar o'zga sori bo'lsa royi rohim

(257-bet)

Oshiq nomasini o'qigan ma'shuqaning qalbidagi ishq-muhabbat yana jo'sh uradi. U oshiqning sevgisi to'la musaffo ekanligiga to'la ishonch hosil qiladi. U oshiq nomasiga javob yozar ekan, o'z qalbini o'rtayotgan ishq tug'yonini oshkor etib, visol onlari yaqinlashganini, hijron tuni tugab, subh sodiq o'ta boshlaganini suhbat – bazm tayyorgarligini ko'rish zarurligini bayon qiladi. Bu xushxabardan g'oyat mamnun bo'lgan oshiq ma'shuqadan qayerda, qanday tarzda bazm uyushtirishni unga maqbul bo'lishi noma orqali so'raydi. Ma'shuqaning javob nomasini olgan oshiq bazm tayyorgarligiga kirishadi. Bahromning xovarnaq saroyidan ham go'zalroq joyda bazm asboblari jamlanadi va oshiq o'zining ma'shuqasining kirib kelishini intizorlik bilan kutadi. Nihoyat ma'shuqa eshikda paydo bo'ladi. Ma'shuqa bilan oshiq visol oqshomini zo'r shodiyona va ko'tarinki ruh bilan o'tkazadilar va yakunda sevishtganlar murod – maqsadlariga yetadilar.

”Dahnoma” asarining quyidagi qisqacha bayonidan shu narsa ravshan ko'rinadiki, Yusuf Amiriy garchi o'zbek adabiyotida o'zigacha Xorazmiy, so'ng zamondoshlari Xojandiy va Sayid Ahmad tomonidan davom ettirilgan nomachilik an'anasiga amal qilgan bo'lsa ham, ijodkor shoir sifatida bu an'anani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'targan, lirik tavsiflarga nisbatan epik holatni kuchaytirish yo'llari va usullarini tutgan shoir bo'lgan.

Yusuf Amiriy Dahnoma”si Sharq adabiyotining an'anaviy sevgi-muhabbat mavzusida yaratilgan bo'lib, unda tasvirlangan voqealar fonida sevgi va muhabbat, vafo va vafodorlik, halollik, rostgo'ylik, sabot, matonat, turmush qurish masalalari bu ajoyib asarning g'oyaviy voqealar silsilasini tashkil etadi. ”Dahnoma” asosan nomalardan tashkil topganligi uchun ham undagi obrazlar qiyofasi, xarakter va xususiyatlari shu asarning o'ziga xos jihatlari doirasida aks etadi.

Asardagi oshiq timsoli chin sevgiga ega bo'lgan inson, kamtarin va sadoqatli yigit, sevgi iztiroblarini mardona yengib, ma'shuqa visoliga intiluvchi, sabotli, matonatli oshiq sifatida talqin etiladi.

Oshiq ishq ishi oson emasligini, ko'p to'siq va g'ovlarni yengib o'tish orqaligina ma'shuqa visoliga yetish mumkin ekanligini his etadi. Shuning uchun ham ma'shuqaning dastlabki g'azali javobidan tushkullikka tushmaydi. Aksincha, o'z sevgisida fidoiyligini qayta-qayta ta'kidlaydi.

Men ul bulbul emasman, ey gulandon,

Ki bir dam bargsiz tongayman orom.

Kuyar parona jondin qayg'u emas,

Kishi parvonadan xud o'ksuk emas.

Men ul kunkim g'aming so'zini tuzdim,

Seni dedim, ko'ngulni jondin uzdim.

(244 - bet)

Oshiq ishq yo'lida Majnundek sargardon. Shirin visoli ilinjida g'am togini qoporgan Farhoddek mashaqqatlarga uchragan bo'lsa ham o'z niyatlaridan yuz o'girmaydi, unga sodiq qoladi. Oshiq o'zining ana shunday yuksak insoniy fazilatlari tufayli ma'shuqa maylini qozonadi, uning Shomi subhga, tuni kunduzga, g'ami shodlikka, ayriliq visolga aylanadi. Shoir talqinidagi oshiq qiyofasida muhabbatda sadoqat, qiyinchilik va mashaqqatlardan chekinmaslik, maqsadga intilish, poklik, to'g'rilik kabi fazilatlar ulug'lanishi bilan birga bunday hislarga ega bo'lgan shaxs albatta, o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadiga yetishi aks ettiriladi. Bu shubhasiz, oshiq obrazining xarakterini belgilash bilan birga uning katta tarbiyaviy estetik qimmatini ham oshiradi. Umuman, "Dahnoma" asardagi oshiq timsoli shoirning muhabbatda sadoqat vafodorlik kabi g'oyalarni ifodalovchi siymodir. Asarda bir qadar keng va atroflicha tasvir etilgan qahramonlardan biri ma'shuqa obrazidir. Bu obraz Amiriygacha ham klassik adabiyotimizning ilg'or vakillari ijodida xilma-xil usullardan hayotiy go'zalligini ma'shuqaga bo'lgan muhabbat vositasida insonning hayotga bo'lgan muhabbatini ifodalaganlar.

“Dahnoma”da tasvir etilgan ma’shuqa beqiyos go‘zalligi bilan birga so‘zga chechan, hozirjavob aqlli qiz. U hayotga aql – zakovat bilan qaraydi. U oshiqning oshiqona maktubidan dastlab g‘azablanadi, lekin maktublar vositasi bilan oshiq chekayotgan iztiroblarni to‘g‘ri his qiladi. Shuning uchun ham g‘azabni lutf bilan murakkab qilib oshiqqa javob yozadi. Ma’shuqa o‘z qadr – qimmatini yaxshi biluvchi qiz. Lekin oshiqning xarakterini yaxshi bilmaydi, binobarib, unga ijobiy javob berish mumkin emas. U oshiqning ishq sinovlariga bardoshini sinash maqsadida shu ishni qildi.

Tasanno qil vale o‘zungga loyiq,

Tomosho o‘zgaruvchan qil vale ko‘zungga loyiq

(240-bet)

deydi. Asarda tasvirlangan ma’shuqa o‘zgaruvchan obraz bo‘lib, uning xarakteri, xususan, oshiqqa bo‘lgan munosabati voqealar jarayonida o‘zgarib, rivojlanib boradi. Oshiq o‘zining ma’shuqaga bo‘lgan sof samimiy sevgisi, chin dil so‘zlari, ma’shuqaning ta’nanomiz, achchiq so‘zlariga xushnavolik bilan javob qaytarishi tufayli ma’shuqa dilini ma’lum darajada o‘ziga rom etadi. Shuning uchun ma’shuqa asta – sekin oshiq ishqiga moyil bo‘la boshlaydi. Endi u oshiqqa yurakdan achinadi, uning dardiga hamdard, alamga alamkash bo‘ladi.

Tishim lo‘lisidi ul ko‘zi daryo,

Chiqormu falak yanglig‘surayyo

Zaqan gohidankim gamdin qutulmas,

Nechundur anga ul ko‘ngli tutilmas.

Belim rozini ayturmu kishiga,

Kamartek tolgonumu hech ishiga

Ma’shuqa oshiq muhabbatining sofligini, haqiqatan ham faqat uni sevishligini yan bir sinovdan o‘tkazishga qaror qiladi.

Oshiq oldiga bir qator shartlar qo‘yadi. Bu an’ana qo‘linga xalq dostonlarining xususiyatidir. Bu Amiriyning o‘z asarini yaratishda qanday manbalarga murojaat etganligini ko‘rsatuvchi muhim dalildir. Muallif ma’shuqa obrazini har jihatdan yetuk qilib yaratishga harakat qilgan.

3.02. Nomalarning badiiyati, she'riy va tarbiyaviy ahamiyati.

Ilmiy ishimizni nomalarning badiiyati bilan davom ettiramiz. Eng avvalo, ilmiy ishining bosh nomasi hisoblangan "Muhabbatnoma"ning badiiy xususiyatlari va tili bilan davom ettirsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Xullas, Xorazmiy yor vasfi va oshiqning ichki kechinmalari tasviri bir – bir bilan uzviy bog'lanib yaxlit birlikni tashkil etadi. Yor husn-jamoliga tahsin qilgan oshiq uning visoliga oshiqadi. Biroq yorning bevafoligi va jabr – sitami oshiqning bag'rini ezib, uni o'rtaydi. Yorning ezgu xulq – atvori uning husn-jamoliga muvofiq va munosib kelsa, bevafoligi va sitamkorligi bunda zid keladi. Shuning uchun oqibatida oshiq bilan yor o'rtasida qarama – qarshilik paydo bo'ladi. Bu qarama – qarshilik asarning tuzilishini tashkil etadi. Biroq konflikt oshiq bilan yorning sevgi munosabatlarini barbot qilmaydi, ularga sinov bo'ladi. Oshiq sabr – bardosh bilan yorning visoliga erishishga, uzun tunning so'nggidan tong boshlanishiga ishonadi. Umid umidsizlikni, shodlik qayg'uni yengadi. Konfliktning shu xilda ijoyib yechilishini Xorazmiyning hayot va insonga bo'lgan muhabbatining natijasidir, dunyoviy adabiyotning optimistik mohiyatining natijasidir.

Shoir yor vasli va oshiq kechinmalari tasvirda jonlantirish, tazod, tajohuli orifona (bilib bilmaslikka olish) kabi usullardan, xilma-xil badiiy til vositalaridan mohirlik bilan foydalanadi. Mukammal obrazlar yaratadi, ayrim odatiy obrazlarga yangi tus beradi. Yorning yuzi oydan, uning og'zi gul g'unchadan qaddi-qomati sarvdan, tishi gavhardan ortiq deydi.

Ochilsa la'lingiz, shakkar sochilur,
Ko'rib gulg'unchaning og'zi ochilur.
Buyuntek sarv yo'q bo'ston ichinda,
Yuzing nuridin oy nuqson ichinda,
Tabassum qilsangiz shakka uyolur,
Tishing injusidin gavhar uyolur,
Qachonkim tor og'zing shakkar bor,
Sabo gulg'uncha og'zini yirtor.

Shoir o`xshatishni metafora va jonlantirish bilan bog`lab berolgani kabi, ko`pincha uni tajohili orifona usulidan ham ustalik bilan ishlatadi.

Shoir baytlarda shunchalik go`zal so`zlarni ishlatadiki, shoir har misrasi o`quvchilarning ongiga, shuuriga, qalbiga, yuragiga juda katta bir samimiyat bilan kirib boradi. Har bir so`zni ustalik bilan beradi va bu so`zlar asarning badiiyatini yuksaltiradi. Shoir yorini ta`riflash jarayonida uning har bir a`zosini tabiatdagi eng go`zal narsalarga qiyoslaydi. Masalan : og`zini gulg`unchaga, bo`yini esa savr daraxtiga, yorning yuzini oyga, tishlarini gavhar donalariga o`xshatish orqali asar badiiyatini mustahkamlashtiradi. Oshiq nafaqat ma`shuqani go`zal narsalarga qiyoslaydi, balkim yorni ulardanda ustun qo`yadi. Har bir misrasida husni ta`lil san`atidan mohirona foydalanadi, bu esa asar badiiyatiga yanada joziba qo`shadi. "Muhabbatnoma"ning yuksaklik darajasi ham xuddi mana shu o`rinlarda namoyon bo`ladi.

Shakkarmu yerdingiz yo qand yo jon,

Uyolur la`lingizdin obi hayvon.

Labast on yo shakkar yo obi hayvon

Suhandhoyat hamma shirintar az jon

(Labmi u yo shakkarmi yo obi hayvon ; so`zlaring jondin shirin) u bosh bilan oyoqni, hayot bilan olmoqni bir-biriga zid va ayni holda berib, tazod usulidan ham mohirlik bilan foydalana olishini namoyon qiladi.

Bu baytlar "Muhabbatnoma" asarining turli xil qirralarini ochishda juda muhim rol o`ynaydi. Bunday ohangdor baytlarni yozish uchun chin shoirlik iste`dodi bo`lishi kerak.

Shoir ma`shuqani shunchalar sevadiki, uning husni-jamoli jon olar shirin so`zlari oshiqning shirin jonidan ham aziz va muhimroqdir. Baytlarda tazod san`atidan foydalanganligi asarni badiiy jihatdan ancha mukammallashtirib, uning badiiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mana shu unsurlar "Muhabbatnoma"ning badiiyatini buyuklashtiradi va uni o`lmas yozma yodgorlikka aylantiradi. Oshiq o`z hissiy nomalarni mana shu tarzda ajoyib ravishda ma`shuqaga yo`llagani tahsinga sazovordir.

Qaro meng ol yanoqingda yaroshur,
Boshim doim adoqinqa yaroshur.
Karashma birla oshiq olturursiz,
Siz olturgan kishi olgaymi hargiz.

O'zbek tili boyliklaridan yaxshi foydalana olgan shoir omonim so'zlar vositasi bilan mukammal so'z o'yinlari (jinos san'ati) yasaydi.

Oshiq ma'shuqaning har qanday sinovga rozi ekanligini bayon qiladi. Oshiq aytadi yor o'zi ham chiroyli biroq, uning yuzidagi dona xoli uni yanada chiroyli va ko'rkam qilib ko'rsatadi. Oshiq uchun bu dunyoda eng aziz narsa bu yor vasli unga tinmay intiladi, u bilan suhbat qurish oshiqning yagona istagi. Oshiq aytadiki sevgi – muhabbat uchun oshiq har qanday xizmatga rozi. Ma'shuqaning so'zlarini oshiq intizorlik bilan kutadi va ma'shuqaning har bir aytgan so'zini buyruqdek qabul qiladi. Imkoniyat darajasida ana shu buyruqlarni amalga oshiradi. Bunday holatdan oshiq naqadar baxtli. Oshiq ma'shuqa ishqida azob chekishi unga olam-olam quvonch bag'ishlaydi. Yor shu darajada noz-u karashmashmaliki, uning nozlari oshiqni juda – juda qiynaydi va ayni damda mana shu qiynoqlar unga huzur – halovat bag'ishlaydi. Bu karashmalarni oshiqni ado qiladi uni o'lib qolgudek qiynaydi. Biroq oshiq o'zini ma'shuqa yo'lida qurbon bo'lishini qiyosi yo'q baxt deb biladi.

Oshar sening elganiga oting,
Quyosh yonlig' jahonni tutti oting.
(ot – hayvon, ot – nom)
Agar desam seni Rustam yarorsen,
Qiliching birla saflarni yarorsen.
(yarorsen – yaraysan, yarorsen – yorasan)

Bu baytda ham shoir omonim so'zlardan foydalanish orqali yana bir so'z o'yiniga boy bo'lgan namunalarni yaratdi.

Oshiq ma'shuqaga shunday murojaat qiladi, sening husning shunchalik go'zalki, hamma seni maqtaydi. Hattoki, daydi ellar ham uchganda sening husnu malohatingni madh qilib uchadi. Shamol shunchalik sening otingni madh qilib

eldiki sani oting deydi: xuddi quyoshday kishilarga mahkum bo'ldi. Oshiq bu fikri bilan quyosh naqadar yuksak va mashhur bo'lsa, yor ham shunchalik obro' – e'tiborga sazovor bo'lgan. Yana yorni oshiq Rustamdek ulug' va qudratli deb baholaydi. Rustam dushmanlarni qilichi bilan qanday mahf qilgan bo'lsa, ma'shuqa ham o'zini sevib qolgan necha – necha qalblarni shunday mahf qilgan. Shoir bu baytlarda talmeh, tanosub, mubolag'a va boshqa she'riy san'atlardan mohirona foydalana olgan. Bu misralarning adabiyotimizda tutgan o'rni nihoyatda salmoqli bo'lib, o'zida nomaning badiiyatini, she'riy va tarbiyaviy ahamiyatini mujassam qila olgan. Chin sevgi, pok muhabbat tarannum qilinganligi, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelyapti va hozirgi kunda ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmaganligi tahsinga sazovordir.

Muhabbattin tugar ming turli asror

Ko'nggul asrorini jon birla asror

(asror – sirlar, asror – asraydi)

Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,

Vafo qilgan kishilarga vafo qil.

(qil – sochning qili, qil – qilmoq)

Seni ko'rgan o'zidan yot bo'lur,

Ruhingni ko'rgan ming shoh mot bo'lur.

(ruh – ruh, yuz, ruh – shahmat ruhi)

Shoir aytishicha, muhabbat bu go'zal tilsimli tuyg'u. Uning sir asrorlarining nihoyasi yo'q. Inson qancha sevsa, shuncha uning ichiga kirib ketaveradi. Ichkariga kirgan sari yangi – yangi tuyg'ularga yetishib muhabbatdan mast bo'lib kezadi. Mana shu sirlarni muhabbat ko'ngilda jon bilan birga asraydi. Oshiq ma'shuqaning go'zalligini shunday ta'riflaydiki, boyini sarv-sanobarga o'xshatsa, belini qildek deb juda go'zal ifodalay olgan. Oshiqning aytishicha, yor shunchalik go'zal bo'lsa ham biroq u vafosiz edi. Oshiq yorga o'ziga nisbatan adolatli bo'lishlikni talab qiladi. Shoir ijodidagi bu baytlar nafaqat o'sha davr uchun, balki hozirgi zamon uchun ham nihoyatda zarur va dolzarb ekanligi tahsinga sazovordir. Shoir fikricha, sevgi bu ilohiy bir go'zal tuyg'u, u har kimga ham nasib

qilavermaydi. Xuddi mana shuning uchun oshiq ham ma'shuqa ham bu tuyg'uni chin dildan his qilishi, oshiq ma'shuqalik talab qoidasiga to'la rioya qilishi kerak. Aks holda sevgi aro yo'lda qolib ko'p hasrat chekishi va bu orqali oshiqning ham, ma'shuqaning ham qalbiga tig' sanchishi mumkin ekanligini aytadi. Bu baytlar o'z davri uchun xitob, kelajak avlodlarga vasiyatdek mazmun aks etganligi tahsinga loyiq, o'zbek adabiyoti tarixida shunday go'zal va ibratomuz asarlarning yaratilishi bu xalq ma'naviyatining yuksalishida muhim rol o'ynamasdan qolmaydi, albatta. Yana oshiq fikrini davom ettirib shunday deydi, sani deydi ko'rish uchun odamlar hamma narsaga tayyor. Ular sani bir ko'rsalar o'zlariga begona bo'lib ruhiyatlaridan ajralib ishqingda devona bo'lib qoladilar. Sevgi bog'ida boy ham, gadoy ham birdek bo'lgani uchun yuzingni ko'rgan istagan shoh oyog'ingga yiqilishga tayyor turadi. Bu misralarning ibratomuzligi shundaki, ma'shuqa deyarli ko'rinmaydi, shuning uchun oshiqlar uning ishqida kuyib kul bo'lishadi. Xorazmiyning bu baytlari bugungi kundagi oshiqdan sevgilarga (agar sevgi deb atab bo'lsa) ulug' bir ibrat namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Asar o'z ahamiyatini yo'qoymasdan, asrlardan – asrlarga o'tib kelayotganining bosh sababi mana shunda bo'lsa ajab emas. Bu baytlar nafaqat ibratli, firklarga balki bir qator ajoyib she'riy san'atlarga ham limmo-lim to'lganligi ta'kidlamasdan ilojimiz yo'q albatta. Bu misralarda shoir husni ta'lil, mubolag'a (g'uluv turi), tajnis, tashxis kabi bir qator she'riy san'atlardan foydalangan. Bu esa asar saviyasiga ta'sir qilmasdan qolmaydi, albatta.

Og'on Yusuf jamolin sizga berdi,

Muhabbat kimyosin bizga berdi.

So'zung Shirin, o'zung Xisravdan afzun.

Bo'lur Layli sening husningga Majnun,

Shoir yor vasfi tasvirida Yusuf, Shirin, Xisrav, Layli, Majnunlar obrazidan ham foydalanadi. Oshiq haqiqiy sevgiga mast bo'lib otashin bir qalb yozgan navbatdagi misralarda shunday beqiyos, go'zal bo'lgan ma'shuqasini juda chiroyli yo'sinda tasvirlaydi. Oshiqning aytishicha, Olloh ma'shuqani yaratganda Yusuf jamolidek husn berib uni bu dunyoda eng go'zal qilib yaratdi. Uning husni jamoli oldida

barcha go‘zallar hangu – mang bo‘lib qoladilar. Olloh oshiqni yaratayotganda ham unga bir ishq qo‘shib beradi, bu haqiqiy ishq kimyosi bo‘lib, oshiqning barcha his-tuygularidan ustun boladi. Yor shunchalik go‘zal bo‘lishi bilan bir qatorda shirinso‘zlik borasida ham yagona edi. Xuddi mana shu sifatlar oshiq qalbiga ishq o‘tini yoqadi va ma’shuqaga bo‘lgan muhabbatni his etishiga sabab bo‘ladi. Oshiqning aytishicha, hattoki, Laylining o‘zi ham ma’shuqani bir bora ko‘rganda edi, unga tan berib ma’shuqani o‘zidan ham yuqori qo‘ygan bo‘lar edi va ma’shuqaning shaydosi ya‘nikim, Majnuniga aylanib qolar edi.

Bu baytda asosiy she‘riy san‘at talmeh san‘atidan juda go‘zal foydalangan. Yorning husni jamolidan maftun bo‘lib, hatto:

Sevarman ko‘zni sizni ko‘rmak uchun

Yururman yerda izni ko‘rmak uchun

degan shoir uning jabr – sitamidan chekkan azob – uqubatlari, ichki kechinmalari tasvirida ham turli usul va xilma-xil badiiy til vositalarini ustalik bilan qo‘llaydi.

Salomim gulga elt ey tong nasimi

Kim erur oy-kuli, axtar-nadimi.

Salomikim ko‘nggul jonona aysa,

Yorug‘ ko‘zlar sovodidan bitisa.

Salomimni tekur ul ko‘rka bo‘y,

Kim urur chehrasi ming ta’na oyga

Ayt qil, ey sozi yolg‘on jafokor,

Qaroqlari qaroqchi o‘zi ayyor

Ayt ey, mehring oz, ishvang farovon

Netar ul og‘izda muncha yolg‘on.

Ayt, mendinkim ul miskin erur kim,

Qachon engay gadoning evina shoh,

Erur yuzi quyosh tek olamoroy...

Keltirilgan misollar Xorazmiyning ”Muhabbatnoma” mazmuniga muvofiq badiiy forma yarata olganini va turli xil usul hamda badiiy til vositalaridan foydalanib, asarning g‘oyaviy – badiiy qimmatini oshirganini ko‘rsatadi.

”Muhabbatnoma” aruzning hazaj (hazaji musammani maqsur – mafoiloun, mafoilun, mafoilun, mafoil) bahrida yozilgan; shoirning soʻz boyligi va oʻzbek tili talaffuziga yaxshi eʼtibor berishi hamda ayrim gʻazallarning bevosita musiqa kuylariga muvofiq aytilishi sheʼriy misralarni ravon va ohangdor qilgan. Zotan ”Muhabbatnoma” misolida biz sanʼatning ikki turi – poeziya va musiqaning yaqindan bogʻlanganini va biri ikkinchisining ravnaq topishiga taʼsir etganini koʻramiz. Xorazmiy ayrim gʻazallarini ”Husayniy”, ”Sifahon” kabi maqomlarda aytilishini taʼkidlaydi:

Husayniy pardasi uzra tuzub soʻz,

Mugʻanniy bu gʻazalni qildi ogʻoz.

Iroqiy mutribe hoham xush ilhom,

Ki xond in gʻazalro dar Sifahon.

(Xushovoz iroqiy hofizning bu gʻazalni Sifahon kuyida aytishini istayman.)

”Muhabbatnoma” turli janrlardagi sheʼriy formalarni oʻz ichiga oladi va shoir shu janrlarga xos qofiya usulini toʻla saqlaydi, u radifdan ham ustalik bilan foydalanadi.

”Muhabbatnoma” XIV asr oʻzbek adabiy tilining muhim yodgorliklaridan biridir. U oʻzbek adabiy tili va adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa boʻlib qoʻshildi hamda oʻzbek adabiy tili va adabiyotining XV asrda yangi taraqqiyot koʻtarilishiga zamin tayyorlagan asarlardan biri boʻldi. Alisher Navoiy ”Muhokamat-ul lugʻatayn” asarida oʻzbek tilida katta holni ifodalovchi maxsus ”meng” soʻzi borligini aytib, ”Muhabbatnoma”dagi :

Anig kim ol enginda meng yaratti,

Boʻyi birla sochini teng yaratti –

misralarini keltiradi. Bu misralarni Navoiy bevosita ”Muhabbatnoma”dan olganmi yoki ularni ashulada eshitganmi buni bilmaymiz. Biroq bundan qatʼiy nazar ”Muhabbatnoma” misralarining ”Muhokamat-ul lugʻatayn”da misol tarzida uni keltirilishi uning til jihatidan xiyla boy ekanligini koʻrsatadi. ”Muhabbatnoma” ning tilga xos ayrim sheva xususiyatlari, (masalan, ”yoqtu”, ”yoviq” kabi soʻzlar

jonalish kelishigining ”a”formasi va boshqalar) hozirgi kungacha Xorazm shevasida saqlanib qolmoqda.

”Muhabbatnoma” o‘zbek dunyoviy adabiyotining ilk yirik asarlaridan biri. Tarkidunyochi shayx va zohidlarga kurashib hayotni e’tirof qilgan shoir o‘z asrining farzandi sifatida ishq-sevgini diniy nuqtai nazardan ham asoslashga intilib:

O‘shul kunkim, seni xoliq yaratti,

Seni dilbar, meni oshiq yaratti , -

degan edi. ”Muhabbatnoma” bunday diniy – ilohiy tushunchalari hamda feodal – aristokratik qarashlariga qaramay, o‘z davrining ijtimoiy fikrlari va so‘z san’ati taraqqiyotida progressiv bir qadam bo‘lgan edi. Bu asar o‘zbek klassik adabiyotida dunyoviy tematikaning rivojlanishiga bir hissa bo‘lib nomachilikning takomilida katta rol o‘ynaydi.

Shoir:

Sening ishqingda Xorazmiy yo‘qoldi,

Va lekin yer yuzida oti qoldi.

Buni kim ishq birla bir o‘qug‘ay,

Haqiqat olamin munda bilg‘ay.

Eshitqon bu kitobin ham bitig‘ay,

Tilar menkim duoda yod qilg‘ay, -

degan edi Xorazmiy, yanglishmadi. Uning asri kitobxonlarga manzur bo‘ldi va o‘zbek klassik adabiyoti taraqqiyotida chuqur iz qoldirdi. Xojandiyning XIV asrda ijod etgan “Latofatnoma”si, Amiriyning XV asrda yaratgan “Dahnoma”si va Said Ahmad ibn Mironshohning “Taashshuqnoma”si bevosita “Muhabbatnoma”ning samarali ta’siri bilan bilan vujudga kelgan asarlardir. “Latofatnoma” muallifi Xo‘jandiy “Muhabbatnoma” va shoir Xorazmiy haqida bunday degan edi:

Muhabbat jonidin ichsang sharobe,

“Muhabbatnoma”ga aysang janobe.

...Xo‘jandiy, so‘zlaring Xorazmiy miskin

Eshirsa: “Balli!”, - deb qilg‘aydi tahsin.

Xulosa

Xorazmiy – katta salohiyat egasi “Muhabbatnoma” uning badiiy qudratiga kafil bo`la oladi. Tabiat unga bebaho ne`mat – ikki tilda birga badiiy fikrlash, nazokatli misralar yaratish fazilatini ato etgan. O`sha ilohiy nazardan bahramand she`r esa jozibali, yashovchan, nurli bo`ladi. Shunday xususiyat Xorazmiy she`riyatida ham kuzatiladi. Xoh turkiy, xoh forsiyda bo`lsin misralar ravon, mag`zi to`liq, Sharq she`riyatining go`zal san`atlari bilan bezatilgan. Bunday g`oyaviy – badiiy mushtaraklik, ayniqsa, “Muhabbatnoma”da bortiribroq namoyon bo`ladi. Izohi ayon, shoir badiiyat bobida muayyan tajribaga erishgan. Mazkur asarga qo`l urgan. O`sha amaliy ko`nikma, hayot sinovlari uyg`otgan saboqlar ijod olamining zavqli an`analari o`ziga xos jiddiyat, tamkillikni vujudga keltirgan. Shundan bo`lsa kerak, “Muhabbatnoma”dan zakovatli, odil, hayotni nafis his etuvchi ziyopesha insonning nafasi urib turadi. Bunday insonlar qalbini ovlamoq uchun siymu zar zo`rni ishga solish pand beradi. Shirin so`z va ma`rifat mash`alasigina bunday oshufta qalblarga yo`l topa oladi.

“Muhabbatnoma” mumtoz adabiyotning keng ommalashgan mavzui ishq-muhabbat talqiniga atalgan. Shuning uchun ham unga ikki an`anaviy qiyofa oshiq va ma`shuqa ishtirok etadi. Tashbehlar ham tanish. Asarning bosh g`oyaviy masalasini sevgiga sadoqatni qo`llash tashkil etadi. She`r qahramonni oshiq o`z yoriga murojaat qiladi. Ma`shuqaning vasfi, surati, tasviri oshiq nigohida beriladi. Shu andoza mahbuba tashqi qiyofasining chizgilari vujudga keladi. Xorazmiyning sohir qalamida chizilgan yorning yuzi – bamisoli ochilgan gul, handon kayfiyatlardda, tiniqlikda esa oyga monand; qaddi-qomat – sarv; osmondagi sayyoralar-yulduzlar-yor qulog`idagi sirga, ma`shuqaning labi la`l, yoxud uzukning yoqut ko`zi misoli qizil va dilkash; zulf – kamon mijgon – oq; ko`z – shaxlo, qovoq – bodom; jozibada jon oluvchi lab ustidagi mayin, qora va xushboy tuklar zamin ustida ko`rk bo`lib turuvchi bahorning ilk, mayin sabzalariga qiyoslanadi. Yorning tashqi suratini chizgan, uning tasvirini bergan shoir o`sha fazilatlar sohibasi bo`lgan yorni vasf qilishda davom etadi. Bunda u ikki qiyofani – oshiq va ma`shuqa holatini yonma-yon tarzda berib boradi. Yor – gulzordagi

muattar gul. Oshiq uning hajrida g'azalxon bulbul. Mahbuba husn mulkining shohi – oshiq shu shoh tasarrufidagi qul, odamlar ko'zning ko'rish quvvati, sog'lomligi hamda tashqi benuqsonligini talqin etish uchun turli shifobaxsh giyohlar, ashyo va dorivorlarni ishga soladilar; oshiq uchun bularga ehtiyoj yo'q. Chunki uning uchun tabarruk to'tiyo – yor qalami bilan muqaddaslashgan tuproq borki, u surmai Sulaymondan ham oshib tushadi. Ana shu tarzda asarda ishq tasviri badiiy bo'yoqdor satrlarda davom etadi. Yuqorida ta'kid etganimizday, asarda ishtirok etadigan qahramonlar an'anaviy.

Ammo ularning talqinida o'ziga xoslik bor. Har bir muallif o'sha tanish aslahayu shaxslarni o'z maqsadlari yo'lida xizmat qildiradi. Maqsad va nuqtai nazar masalalarga munosabat esa aynan qaytarilmaydi.

Xorazmiyning mahorati, ustaligi shundaki, u o'zga til – fors-tojik tili imkoniyatlarini puxta o'zlashtira va ularni maqsadli tarzda ishga sola olgan. "Muhabbatnoma" ravon o'qiladi, unda vazn nuqtai nazaridan saktalik, so'z qo'llash, tashbihlarini ishlatishda namavzunlik holatlari deyarli ko'zga tashlanmaydi. Ma'shuqaning nafis jamolini oy va gulga qiyoslash ko'p marta takrorlangan o'xshatishdir.

Xorazmiy ham ularga murojaat etadi. Shoir nozik bir yo'sinda tajohul - ul orif – bilib, bilmaslikka olish san'atini ishga soladi. Oshiq ma'shuqa jamoli zeboligini biladi, lekin atayin so'raydi: qanday oy yuzlisan? Oshiq xushomad ohangidagi maktubni kuchaytira boradi. Mahbuba chehrasini gulga mengzash ham odat tusiga kirgan. Xorazmiy undan chekinmagan, biroq takrorni ham xush ko'rmaydi. Yangi jilo izlaydi, lutfga suyanadi. Vujudida Xorazmiy ruhi hukmron oshiq ma'shuqa qalbini rom etishni davom qiladi. Mahbubaning yuzi chiroyda har qanday gulni ham dog'da qoldiradi. Shundan bo'lsa kerak, unga ro'baru kelgan gulning og'zi ochilib qoladi. Qarang, maqto'v ham, manzarayu san'atkorlik ham joyida. Boz ustiga satrlardagi tasvir hayotiy zaminda turibdi. Shoirlarimiz Mahbubaning labini madh etishda qizg'in musobaqa qilishgan. Hayot manbai o'sha shirin lablarning qimmat va rangini nazarda tutib "la'l", "yoqut" va hozakolarga nisbat berish urfga aylanadi. Xorazmiy ham chetda turmadi. Ma'shuqa labini la'lu yoqutga o'xshatdi.

Shu o'rinda shoir qosh san'atni – o'xshatish va talmehni qo'llaydi. La'lu yoqut xotam – uzukka ko'z vazifasini ado etib, uning qiymat va chiroyini ko'taradi. Ammo yoqut nigini bor hamma uzuklar ham karomatli emas. Hayratga solish, mo'jiza ko'rsatish, g'ayritabiiy ishlarni amalga oshirish – Sulaymon payg'ambarning hotamiga xosdir. Shoir nozik bir ishora bilan o'quvchi hayolini ana o'sha rivoyatga tortadi.

Karomatli uzuk haqidagi nozik tegizishdan keyingi "e'joz" so'zi masalaga oydinlik kiritadi va Sulaymon payg'ambar barmog'idagi tabarruk uzukni xotirga soladi. Alqissa, yorning labini ham shunchaki yoqut ko'zli uzuklar sirasiga kiritish yaramaydi. U Sulaymon payg'ambar xotami bilan raqobat qilishga qodir, mo'jiza uyg'otuvchi lablardir. Asarda ana shunday lavhalar bag'oyat ko'p. Ular yig'ilib Xorazmiyning o'ziga xosligi, ijodiyligini namoyon qiladi. Xorazmiyning ham o'zbek, ham fors-tojik tili va adabiyotining puxta bilmdoni ekanligi uning "Muhabbatnoma"si tarkibidan joy olgan she'riy maktublar, shoir tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar bilan sug'orilgan she'riy hikoyatda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Oshiqning ma'shuqasiga yo'llagan maktublari bo'yoqdor iboralar, she'riy san'atlarga boyligi bilan diqqatni tortadi.

Yusuf Amiriy va Sayid Ahmad nomalarining adabiyotimiz tarixidagi ulkan mavqei va shuhrati faqat uning tematik – g'oyaviy yuksakligi bilangina emas, balki, ayni zamonda, ilg'or fikr – g'oyalarining orginal ifodasini ta'min etgan o'ziga xos badiiyati bilan ham bevosita aloqadordir.

Umuman, tasvir jihatidan beqiyos bo'lgan Amiriy va Sayid Ahmad merosi buyuk g'oyalar va yuqori badiiylik tabiiy mutanosiblikning yorqin namunasi bo'lib, ijodkorlar badiiy tafakkurining qudrati va imkoniyatlarini namoyon qiladi. Shu jihatdan, dastlab Ergash Rustamov va keyinchalik ustoz Rahimjon Vohidov tomonidan Amiriy va S.Ahmad she'riyatiga nisbatan berilgan ta'rif baho tom ma'noda o'rinli va xolis hisoblanadi. Yusuf Amiriy va Sayid Ahmad noma janri doirasini kengaytirish va poetika jihatdan rivojlantirish, ularning ijtimoiy mohiyatini oshirish borasidagi tashabbuslari yuksak g'oyalarning mukammal badiiy shaklda ifodalanishi uchun imkon beradigan poetik vositalar topib, ijod

jarayoniga keng joriy etish yuzasidan olib borgan jiddiy izlanishlari bilan bevosita qoʻllanib ketgan. Binobarin, Amiriy va S.Ahmad sheʼriyatining gʻoyaviy-badiiy qimmatini, shoirlar sanʼatkorligining oʻziga xos qirralari uning poetik tasvir vositalari doirasi, shuningdek, ularni qoʻllash usullarida yanada aniq namoyon boʻladi.

Ayrim lirik janrni ham oʻz qamroviga olgan "Dahnoma" va "Taaashshuqnoma"da maʼnaviy, lafziy va mushtarak (ham maʼno, ham lafzga dahldor) sanʼatlarning oʻndan ortiq turi mavjud boʻlib, ularning har biri oʻnlab va yuzlab oʻrinda xilma-xil yoʻnalishda ishlatilgan.

Sharq mumtoz poetikasida maʼnaviy lafziy va mushtarak deb atalish sheʼr sanʼatlari poetik tasvirda turlicha vazifani ado etib, har xil uslubiy maʼnoni tashkil etadi. Jiddiy eʼtibor berilsa, butunlay boshqa-boshqa guruhga (maʼnaviy-lafziy mushtarak) mansub sanʼatlar mohiyat jihatidan bir-biriga yaqin ekanligi koʻzga tashlanib turadi. Binobarin, mavjud sheʼr sanʼatlarining uslubiy vazifalari eʼtibori bilan ham muayyan tabaqalarga ajratish mumkin (masalan, ramziy tasvir bilan bogʻliq sanʼatlar, tamsiliy xarakterdagi sanʼatlar v.h.).

"Dahnoma" va "Taashshuqnoma"da bir qator sanʼatlar bevosita sheʼrning tuzilishi va uslubi bilan aloqador. Shu jihatdan bu ularni xarakter eʼtibori bilan kompozitsion – stilistik usullar deb atashimiz mumkin. Lekin bu atama umumiy va maʼlum darajada shartli boʻlib, shu guruhga mansub usullarga xos xususiy jihatlarni inkor qilmagan holda, ularning umumiy xususiyatlarigagina asoslangan. Chunki ayrim sanʼatlar faqat sheʼrning umumiy tuzilishiga dahldor boʻlsa, baʼzilari uning sintaktik strukturasi bilan, baʼzilari esa semantik-sintaktik tuzilishi bilan aloqador. Demak, bu guruhga mansub sanʼatlarning oʻzini ham yana maʼlum nuqtai nazardan tabaqalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Barkamol avlod orzusi. -Toshkent: "Sharq" nashriyoti - matbaa konsemi Bosh tahririyati, 1999.-181 b.
2. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. Toshkent: "O'zbekiston", 1996. -352 b
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -Toshkent: "Sharq" nashriyoti-manbaa konsemi bosh tahririyati, 1998. -32 b
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. -Toshkent: "O'zbekiston", 1996. 368 b.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrash va ishlash davr talabi. -Toshkent: "O'zbekiston". 1997. -384 b

II. Ilmiy-badiiy adabiyotlar

1. Abdug'ofurov A. Furqat lirikasida sotsial motivlar. "Zokiijon Furqat" maqolalar to'plami. Toshkent: "Fan", 1959. -180 b.
2. Abdug'ofurov A. Zokirjon Furqat. - Toshkent: "Fan", 1977. -160 b.
3. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom. -Toshkent: "Fan", 1979. - 448 b.
4. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 2-tom. -Toshkent: "Fan", 1979. -448 b.
5. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 1-tom. - Toshkent: "Fan", 1983. -656b.
6. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 2-tom. - Toshkent: "Fan", 1983. -644 b.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 3-tom. -Toshkent "Fan", 1984.-624 b.
8. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. To'rt tomlik. 4-tom. -Toshkent "Fan", 1985.-636 b.
9. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 2-tom. -Toshkent: "Fan", 16. -300 b.

10. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 3-tom. -Toshkent: "Fan", 1966. -209 b.
11. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 12-tom. -Toshkent: "Fan", 1966
12. "Fan", 1993. -208 b.
13. Alisher Navoiy. G'azallar. Sharhlar. -Toshkent: "Kamalak", 1991, -176 b.
14. Avaz O'tar. Tanlangan asarlar. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. -290 b.
15. Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-jome' as sahih /Ishonarli to'plam/ 4 jildlik. 1-jild. -Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. 1991. -560 b.
16. Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-jome' as sahih /Ishonarli to'plam/ 4 jildlik. 3-jild. -Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. 1992. -560 b.
17. Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-jome' as sahih /Ishonarli to'plam/ 4 jildlik. 4-jild. -Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati. 1992. -528 b.
18. Fitrat A. Adabivot qoidalari. -Toshkent: "O'qituvchi", 1995. -112 b.
19. Furqat. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. I-tom -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1960. -200 b.
20. Furqat. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. I-tom -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1970. -230 b.
21. Fuzuliy. Devon. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1959. -203 b.
22. Halilbekov A. Nadim. Tanlangan asarlar. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabivot va san'at nashriyoti, 1955. -190 b.
23. Haqqul I. Abadiyat farzandlari. -Toshkent: "Yosh gvardiya", 1990. -192 b.
24. Haqqul I. Irfon va idrok. -Toshkent: "Ma'naviyat", 1998. -160 b.
25. Haqqul I. Kamol et kasbkim. -Toshkent: "Cho'lpon", 1991. -240 b.
26. Haqqul I. Tasavvuf va she'riyat. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. -184 b.
27. Haqqul I. Zanjirband sher qoshida. -Toshkent: "Yulduzcha", 1989. -223 b.

28. Haqqul I. O'zbek adabiyotida ruboiy. -Toshkent: "Fan". 1981. -98 b.
29. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. -
Toshkent: O'Z SSR FA nashriyoti. 1959. -196 b.
30. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning ijodiy metodi masalalari. -Toshkent:
O'Z SSR HA nashriyoti, 1963. -173 b.
31. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. –Toshkent
"Fan". 1970. -330 b.
32. Hayitmetov A. Adabiyotimiz tarixining o'z izohlari. //Sharq yulduzi,
197\..№12. -193 b.
33. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. -Toshkent: "Fan", 1966.
160 b.
34. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. -Toshkent: "Fan". 1961. -300 b.
35. Hayitmetov A. Muqimiyning lirik she'rlari. "Yosh lelinchi" gazetasi. 1953
y. 24 sentabr.
36. Husayniy, Atoulloh. Badoy i'u-s-sunoyi. -Toshkent: G`afur G'ulom
nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1981. -400 b.
37. Ishoqov U. Navoiy poetikasi. -Toshkent: "Fan". 1983. -168 b.
38. Ishoqov U, Tashbehul atrof // O'zbek tili va adabiyoti. -1972. №1. 90-92 b
39. Karimov G\ Muqimiy. Hayoti va ijodi. -Toshkent: "Fan". 1970. -240 b.
40. Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. 3 kitob. -Toshkent: "O'qituvchi". 1966.
41. Karomatov F. O'zbek musiqa folklorining yozilish tarixidan. "Sharq
yulduzi".
1958 y. 3-son. 56-59 b.
42. Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. -Toshkent: "Yozuvchi". 1966. -272 b.
43. Komilov N. Tasavvuf. Ikkinchi kitob. Tavhid asrori. -Toshkent: G'afur
G'ulom nomidagi adabiyot va san'at hamda "O'zbekiston" nashriyoti. 1999.
-204 b.
44. Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi
adabiyot va san'at nashriyoti, 1961. -190 b.

45. Latif U. Muqimiy haqida. "Guliston". 1938 y. 6-son.
46. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. -Toshkent: 1963.
47. Mallayev N. O`zbek adabiyoti tarixi. 1 kitob. -Toshkent: O'qituvchi", 1980,-173 b.
48. Mallayev N.M. O'zbek adabiyotida g'azal va uning rivojida Navoiyning roli haqida. "O zbek tili va adabiyoti". 1968,4-son, 56-59 b.
49. Mallavev N. Navoiy ijodining tahlil negizi. -Toshkent: "O'qituvchi". 1980.; -173 b.
50. Mirzayev V, Avaz O'tar. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1968. -130 b.
51. Muhammad payg 'ambar qissalari. Hadislar. -Toshkent: "Kamalak". 1991. -301 b.
52. Muqimiy. Asarlar to'plami. Ikki tomlik. 2-tom. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1960.
53. Navoiy asarlari lug'ati, -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1972. -784 b.
54. Navoiy va ijod saboqlari. Ilmiy to'plam. -Toshkent: "Fan", 1981.-153 b
55. Navoiy Zamondoshlari xotirasida. -Toshkent: " Fan". 1985. -226 b
56. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik 1-jild. -Toshkent: "Fan", 1987.-723b.
57. Navoiy A. Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik. 2-jild. -Toshkent; "Fan", 1987-620 b.
58. Navoiy A. Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik. 3-jild. -Toshkent; "Fan", 1988-616 b.
59. Navoiy A. Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik. 3-jild. -Toshkent; "Fan", 1997-284 b.
60. Navoiy A. Asarlar. 15 tomlik, 1-tom. –Toshkent.: "Fan".15. -206b.
61. Navoiyning ijod olami. Maqolalar to'plami. -Toshkent: "Fan", 2001. -200 b.
62. Nodim Namangoniy. Tanlangan she rlar. Nashrga tayyorlovchi A.Halilbekov. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.

1964.-146 b.

63. Nosirov O. O`zbek adabiyotida g'azal. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. 136 b.

64.Olimjon N. Muhammad Amin Muqimiy. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1938.7-8-son.

65. Orzubekov R. O'zbek link poeziyasida g'azal va musammat - Toshkent:"Fan". -1976. -120b

66.Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 13-tom. -Toshkent: "Fan". 1979. -512 b

67. Oybek. Navoiy. -Toshkent: "O'qituvchi". 1985. -440 b.

68. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyoti matbaa birlashmasi. 1992. -496 b.

69. Rasulov N. Zokirjon Furqat ijodi. -Toshkent: "Fan". 1954. -180 b.

70. Razzoqov N. Zavqiyning hayoti va ijodi. -Toshkent. 1958.

71. Rojiiy haqida. –Mo`minova V. Shoir Rojiiy. "O'zbek tili va adabiyoti". 1967. 2-son. 61-64 b.

72. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1979. -213 b.

73. Sarimsoqov B. Saj' va lining o'zbek folklorida tutgan o'mi. Filologiya fanlari nomzodi ...dis. -Toshkent: "Fan". 1973. - 156 b.

74. Sulton Izzat. Adabiyot nazariyasi. -Toshkent: "O'qituvchi". 1980 y. -392 b.

75. Valixojjaev B., Vohidov R. Navoiy ijodi - ilhom manbai. -Toshkent: "Fan". 1981.-74 b.

76. Valixojjaev B. O'zbek adabiyoti tarixi. X-XIX asrlar. -Toshkent: "O'zbekiston". 1983. -192 b.

77. Vohidov R. XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlarida o'zbek va tojik she'riyati /Adabiy aloqa va o'zaro ta'sir masalalari/ Toshkent: "Fan". 1983.-141 b.

78. Vohidov R. Sharqning buyuk allomasi. -Toshkent: "Fan". 1982. 72 b.

79. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. -Buxoro: "Buxoro" nashriyoti. 1994.208 b.
80. Yoqubov N.A. Demokrat shoir Muqimiy, -Toshkent, 1950. -141 b.
81. Yunus M. Komil Xorazmiy. Toshkent: "Fan", G`afur G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1963. 130 b.
82. Yusupov U. Avaz O'tar o'g'li, "Guliston", 1940. 6-son.
83. Zaripov N. Furqatning "Sayding qo'yaber sayyod" she'ri haqida: -Furqat Maqolalar to'plami. Toshkent: "Fan". 1968. -180 b
84. Zavqiy. Tanlangan asarlar. -Toshkent. 1958. -80 b.
85. Zohidov V.U. Furqat ijodi va zamonamiz. "Zokitjon Furqat". Maqolalar to'plami. -Toshkent: "Fan", 1965. 200 b.
86. Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qalbi, -Toshkent: "O'zbekiston". 1970.-496 b.
87. Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. Toshkent: "Fan". 1961. -201 b.
88. O'zbek adabiyoli tarixi. Besh tomlik. 2-tom. -Toshkent: "Fan". 1977. -447 b.
89. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik, 1-tom. -M: Rus tili nashriyoti, 1981. -631 b.
90. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. 2-tom. -M: Rus till nashriyoti. 1981. -715 b.
91. G'aniyeva S, Alisher Navoiy. -Toshkent: O'Z SSR FA nashriyoti, 1962. -84 b.
92. G'ulom G Muqimiy. Tanlangan asarlar. -Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 3-son. 56-59 boblar. 1942. -206 b.
93. Shayxzoda. Asarlar. Olti tomlik 4-tom. G'azal mulkining sultoni. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1972. -372 b.
94. Shayxzoda M. Eski to'nli faqirlar shoiri (Muqimiy). "Guliston", 1938. 6-son.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 I bob. NOMA JANRINING ILK NAMUNASI	
1.01. “Muhabbatnoma”ning yozilish tarixi, tarkibi va tuzilishi.....	8
1.02. Xorazmiy nomalarida ma’shuqa husnu jamoli, visol ishtiyoqi va hijron iztirobi talqini.....	17
 II bob. “LATOFATNOMA” – NOMA JANRINING NODIR NAMUNASI	
2.01. Xo‘jandiy “Latofatnoma”sining o‘ziga xos xususiyatlari.....	26
2.02. “Latofatnoma”da ona tabiat go‘zalliklarining ma’shuqa timsolidagi ifodasi.....	34
 III bob. YUSUF AMIRIY VA SAYYID AHMADNING JANR TARAQQIYOTIGA QO‘SHGAN HISSALARI	
3.01. “Dahnoma” va “Taashshuqnoma”da Yor va oshiq timsoli.....	43
3.02. Nomalarning badiiyati.....	53
 XULOSA.....	 61
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	 65